

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi

Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi

Andijon Davlat universiteti

O‘zbek adabiyoti kafedrası

Mushtariy Alijonova

Sa’diy ijodining o‘zbek adabiyotiga ta’siri masalasi

(o‘zbek mumtoz adabiyoti tarixidan yozilgan bititruv malakaviy ishi)

Ilmiy rahbar:

dotsent B.Jalilov

ANDIJON — 2015

“Himoyaga tavsiya etaman”

Ish rahbari: B.Jalilov

“ ” 2015

“Himoyaga qo‘yishga ruxsat beraman”

Kafedra mudiri f.f.n. A.Hamroqulov

“ ” 2015

“Himoyaga tavsiya etaman”

Rasmiy taqrizchi:

“ ” 2015

Davlat Attestatsiya Hay’atiga himoya uchun taqdim etaman:

Fakultet dekani: dotsent B.Rahmonov

“ ” 2015

MUNDARIJA

KIRISH.....	4
I-bob. SA'DIY SHEROZIY — SHARQ ADABIYOTINING YIRIK VAKILI.....	8
II-bob.“GULISTON” ASARI SAYFI SAROYI TARJIMASIDA.....	13
III-bobSA'DIY LIRIKASINING O'ZBEK ADABIYOTIGA TA'SIRI..	33
XULOSA.....	52
FOYDALANILAGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	53

K I R I S H

Bitiruv malakaviy ishining umumiy tavsifi. Xalaqlar o'rtasidagi do'stlikning barqaror bo'lishi mamlakatlar o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy, madaniy aloqalarga bog'liqdir. Mamlakatlar o'rtasida aloqalar kuchli bo'lsa, tinchlik barqaror bo'ladi. O'zbek va tojik xalqlari yonma-yon yashab, dini, urf-odatlarini bir xil bo'lgani uchun bir-biriga qiz olib, qiz berganlar, do'stlikda, hamjihatlikda yashashga harakat qilganlar.

Bu ikki xalq o'rtasidagi do'stlikning rivojida adabiyotning xizmati katta bo'lgan. Fors-tojik adabiyotining klassiklari: Rudakiy, Firdavsiy, Hofiz, Sa'diy singari ijodkorlar turkiy xalqlar adabiyotiga, jumladan, o'zbek adabiyotiga juda katta ta'sir ko'rsatgan. O'zbek adabiyotining yirik vakillari ularni o'zlariga ustoz sanaganlar, ular ijodidagi ilg'or an'analarni o'zlashtirganlar.

Firdavsiy "Shohnoma" asarida Eron shohlari tarixini bergan bo'lsa, Navoiy "Tarixi muluki Ajam" asarida ham Eron, ham Turon shohlari tarixini yaratdi.

Navoiy g'azal janri borasida o'z ustozlarini sanaganda, Xisrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiylar qatorida Hofiz Sheroziyni tilga oladi. Fors-tojik adabiyoti klassiklari boshqa o'zbek shoirlari ijodiga ham katta ta'sir o'tkazgan.

Mavzuning dolzarbligi. Dunyoning tinchligi, yurtlar obodligi xalqlar o'rtasidagi aloqalarning kuchliligiga bog'liqdir. Xalqlar o'rtasidagi aloqalarning muhim bir tomoni ular o'rtasidagi madaniy aloqalarga bog'liqdir. Bu masalada tarjima adabiyoti, fors-tojik adabiyoti klassiklarining o'zbek shoirlari ijodiga ta'siri masalasi muhim ahamiyatga egadir. Bu masalalarning chuqur va har tomonlama o'rganilishi xalqlar o'rtasidagi do'stlikning kuchayishiga olib keladi.

Sa'diy ijodining o'zbek adabiyotiga ta'siri masalasining o'rganilishi ana shu maqsadlarga xizmat qiladi.

Mavzuning o'rganilish darajasi. Sa'diy daholarning ijodkor bo'lganligi sababli uning ijodi jahon shoirlari diqqat markazida bo'lgan. Ulug' nemis shoiri Gyote Sa'diyning juda mahsuldor va fayzli, hayot tajribasi bilan boyigan juda yaxshi shoir" deb hisoblagan.

Sa'diy asarlari G'arbiy Yevropada alloqachonlardan beri ma'lum bo'lgan. Mashhur fransuz faylasufi va yozuvchisi Volter "Guliston"dan xabardor bo'lgan va ba'zi she'rlarida foydalangan.

"Guliston" XVIII asrning birinchi yarmidayoq Yevropa tillariga tarjima qilinib, tarqala boshlagan edi.

Sa'diyning o'lmas asari birinchi bor fransuz tiliga tarjima qilinib, 1634-yilda Parijda nashr etilgan edi. So'ngra u fransuzchadan nemis tiliga tarjima qilinib, 1635-yilda bosilib chiqqan edi. Undan keyin ham Yevropa va boshqa bir qancha xalqlar tiliga tarjima qilingandir.

"Guliston" rus tiliga ko'p marta tarjima qilingan. Bular orasida A.Kozimbek (1829), S.Nazaryans (1857), K.Lombars (1862), I.Xolmagorov (1882), E.E.Bertels (1922) tarjimalari mavjud. Bu nodir asar 1390-1391-yillarda Sayfi Saroyi, XIX asrning ikkinchi yarmida mashhur shoir Ogahiy, 1909-yilda Murodxo'ja domla Solihxo'ja o'g'li tomonidan o'zbek tiliga ham tarjima qilingan.

Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutida olim Rustam Aliyev tomonidan "Guliston"ning tanqidiy matni tayyorlandi va shu matn asosida 1957-1959-yillarda badiiy hamda akademik tarjimalar bosilib chiqdi.

1968-yilda shoir G'afur G'ulom bilan birga Shoislom Shomammedov, Rustam Komilovlar tomonidan 1959-yilda Moskvada nashr etilgan va 1966-yilda Tehronda chiqqan to'liq bosmasidan tanlab olinib tuzilgan matn asosida tarjima qilinib, o'quvchilarga taqdim etildi.

Dunyoga mashhur “Guliston” asarining muallifi Shayx Sa’diyga Sadriddin Ayniy: “Fors-tojik adabiyotining birinchi satirachisi”¹,– deb baho berganida batamom haqli edi. Sa’diy mohiyati jihatidan nosatirik bo‘lgan asarlarida ham qator satirik va yumoristik hikoyatlarni joylab yuborgan edi. “Guliston”da ko‘plab latifa, hazil, nozik hajvlar ishlatiladi. Sa’diy fors-tojik adabiyotida mazmundor hazil va shirin hajvlarning ijodkoridir.

“Sa’diyning hajv va hazillari ko‘proq ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan hazillar edi”.²

Ishning maqsad va vazifalari. Tadqiqotimizning asosiy maqsadi Sa’diy Sheroziy asarlarining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash.

Sa’diy o‘z ijodiyoti bilan G‘arb va Sharq xalqlari adabiyotiga samarali ta’sir etdi. Uning “Guliston” idan ilhomlangan Abdurahmon Jomiy “Bahoriston” asarini, Majiddin Xofiy “Xoriston” va Habib Kaoniy Sheroziy “Parishon” asarini yaratdilar.

Bundan tashqari Sayfi Saroyi ham Sa’diyning “Guliston”idan zavqlanib, o‘zining “Gulistoni bit turkiy” asarini yaratdi. Asarda Sa’diy “Guliston”idagi boblar saqlanib qolingan.

Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi. Ish uch bobdan iborat bo‘lib, birinchi bobda bitiruv malakaviy ishning umumiy tavsifi berilgan. Shuningdek, bu bobda Sa’diyning Sharq adabiyotidagi o‘rni masalasi ham yoritilgan. Ikkinchi bobda “Guliston” asarining Sayfi Saroyi tomonidan qilingan tarjimasini tahlil etilgan. Uchinchi bob Sa’diy lirikasining o‘zbek adabiyotiga ta’siri masalasiga bag‘ishlangan.

Ishning so‘nggida xulosalar bayon qilinib, adabiyotlar ro‘yxati ilova qilingan.

¹S.Ayniy. Asarlar, 8-tom, T., 1917., 169-bet

²S.Ayniy. Asarlar, X tom, T., 1967., 169-bet

Ishning obyekti va predmeti. Sa'diyshunos olimlar: S.Ayniy, G'.G'ulom, Sh.Shomammedov, J.Jabborovlarning Sa'diy ijodi haqidagi nazariy fikrlari ish manbasini tashkil qiladi. Sa'diyning "Guliston" asarining o'zbek tilidagi nashri, she'rlar to'plami ishning obyekti qilib olindi.

Ishning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati. Sa'diy asarlarining o'ziga xos xususiyatlari kompoitsiyasi, boblari, tematikasi va nomlanishi, bir so'z bilan juda katta ma'no berishi bilan alohida ajralib turadi.

Tadqiqotda Sa'diyning qahramon yaratishdagi o'ziga xos xususiyatlari ochib berildi.

Ushbu tadqiqotlarimizdagi asosiy xulosalar va umumlashmalar o'zbek adabiyoti masalalari, Sa'diy ijodini masalalarini o'rganish muhim nazariy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotda tahlilga tortilgan faktik materiallar, xulosalar va nazariy fikr mulohazalardan oliy o'quv yurtlaridan o'zbek adabiyoti va Sa'diy ilodini o'rganish akademik litsey va kollejlarda dars mashg'ulotlarini olib borish, darslik va majmualar yaratish, shuningdek, Sa'diy ijodiga bag'ishlangan qo'llanmalar tayyorlashda foydalanish mumkin.

Shuningdek, ma'ruza matnlari tayyorlash, ma'ruzalar o'qish va amaliy mashg'ulotlar olib borish, foydalanish tavsiya etiladi.

Bitiruv malakaviy ishning metodi. Ishni yozishda g'oyaviy-estetik metoddan, qiyosiy metoddan foydalandim. "Guliston" asari Sayfi Saroyi tarjimai bilan qiyos qilindi. Sa'diy g'azallarining Foni g'azallariga ta'siri ham qiyosiy metod orqali o'rganildi.

I-bob. Sa'diy Sheroziy — Sharq adabiyotining yirik vakili

“... juda mahsuldor va fayzli, hayot
tajribasi bilan boyigan juda yaxshi
shoir...”

GYOTE

Biz o'zbek adabiyoti tarixini, adabiyotini o'rganar ekanmiz, boy madaniy-adabiy an'analarga ega bo'lgan xalqimizning Sharqdagi ko'pgina qo'shni-qardosh xalqlar bilan yaqin aloqada bo'lib kelganliklarini ko'ramiz. Turli etnik qatlamlarga mansubliklaridan qat'iy nazar o'zbek, tojik, ozarbayjon va Sharqdagi qator boshqa xalqlar asrlar davomida deyarli bir-xil siyosiy-ijtimoiy sharoitda yashaganlar, ishlab chiqarishda birga qatnashganlar, zulm va zo'rlikka qarshi birgalashib bosh ko'targanlar. Bu xalqlar o'rtasidagi madaniy-adabiy aloqalar shu zaminda paydo bo'lgan va rivojlangan.

Sharq xalqlari o'rtalaridagi munosabatlar qardoshlik, vafodorlik asoslariga qurilgan bo'lib, bu xalqlarning bir-biriga yaqinlashuvi, o'rtada jonli mushtarak bir madaniyat yaratishga yordam berib keldi. Xonlar, beklar o'rtasida butun o'rta asr davomida hukmron bo'lib kelgan qonli urushlar, nifoqlar xalqning ma'naviy jipsligiga rahna sololmadi.

O'zbek adabiyotining Sharqdagi ko'pgina adabiyotlar bilan yaqinligi o'zaro munosabatlar tarixida hamisha muhim jarayon sifatida ko'zga tashlanadi. O'rta Osiyo va Eronda mahalliy Somoniylar davlati vujudga kelgan davrdan boshlab fors-tojik tilidagi adabiyot keng ko'lamda taraqqiy qildi.

Fors-tojik tili o'sha davr ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayot taqozosiga ko'ra dastlab somoniylar, keyinchalik g'aznaviylar, saljuqiylar, qoraxoniylar ta'siri ostida bo'lgan keng territoriyada katta mavqega ega bo'ldi. Natijada faqat tojiklarning o'zlarigina emas, o'zbek, ozarbayjon,

turkman, hatto hind adabiyoti namoyandalari ham o‘z asarlarini shu tilda yaratdilar. Bu davr fors-tojik tilidagi adabiyot taraqqiyotida o‘zbek, ozarbayjon va boshqa xalqlarning ham hissasi mavjud.

Shayx Muslihiddin Sa’diy Sheroziy fors-tojik mumtoz adabiyotining ulug‘ namoyondalaridan biridir. U 1204-1208-yillar orasida Sherozda tug‘ildi. 1291/92 yillarda vafot etgan.

Sa’diy dastlabki ma’lumotini Sherozda oldi, keyin Bag‘dodning mashhur “Nizomiya” madrasasida o‘qidi. Madrasa tahsilidan keyin Sa’diy ko‘p yillik uzoq safarga jo‘nab, Sharqning bir qancha mamlakatlarini kezib chiqdi va ahli saliblar qo‘liga asir tushdi. Bir muncha vaqtdan so‘ng xalablik bir do‘sti uni asirlikdan ozod etib oldi.

“Bo‘ston” asari bilan shuhrat qozongan Sa’diy Fors viloyatining hokimi Abubakr ibn Sa’diy Zangiy o‘z saroyiga taklif qildi. Sa’diy unga bag‘ishlab bir necha qasida yozadi, ammo saroyga bormaydi.

Chunki u:

“Ba dast ohaki tafta kardan xamir,

Beh az dast bar sina peshi amir”

(O‘tdek ohakni qo‘l bilan qorib xamir qilmoq, amir oldida qo‘lni ko‘ksiga qovushtirib turishdan yaxshiroq) deb hisoblar edi.

Sa’diy butun kuch-qudratini badiiy ijodga bag‘ishladi, hayot tajribalarini, safar taassurotlarini, orzu armonlarini badiiy asarlarida mujassamlantirdi.

Sa’diy ulug‘ shoir va adibdir. Fors-tojik adabiyoti tarixida Sa’diyning mavqei juda baland. U birinchi bo‘lib g‘azal formasini mustaqil janr darajasiga ko‘tardi. Uning “Kulliyot”iga to‘rt devon kiritilgan. O‘n to‘rtinchi asr boshlarida “Besutun” nomi bilan mashhur bo‘lgan.

Ali binni Ahmad Abubakr degan kishi tomonidan tuzilgan Sa'diy kulliyoti:

1. Shash risola (“Olti risola”)
2. “Guliston”, “Bo‘ston”
3. “Qasoidi arabiy” (“Arabcha qasidalar”)
4. “Qasoidi forsiy” (“Forsiy qasidalar”)
5. G‘azallar devoni 4 ta
6. “Sohibiya” yoki “Sohibnoma”.
7. “Masnaviylar” – “Masnaviyot”
8. “Qit‘aot” (“Qit‘alar”)
9. “Mulammaot” (“Shiru shakarlar”)
10. “Mufradot” (“Fardlar”)

va boshqalarni o‘z ichiga oladi.

Sa'diy, ayniqsa, “Guliston”, “Bo‘ston” asarlari hamda g‘azallari bilan keng shuhrat qozongan.

“Bo‘ston” she’riy axloqiy-ta’limiy asar bo‘lib, o‘n bobga bo‘lingan.

Bu boblar:

1. Adolat
2. Ehson
3. Ishq
4. Tavozi
5. Rizo
6. Qanoat
7. Tarbiya
8. Shukur
9. Tavba
10. Xotima

Sa'diy bu asarida axloqiy-ta'limiy qarashlarini ibratli kichik hikoyalarga va didaktik lirik she'rlarga mujassamlantiradi. "Guliston" nasriy axloqiy-ta'limiy asar bo'lib, sakkiz bobga bo'lingan.

1. Podsholarning xislati
2. Darveshlarning axloqi
3. Qanoatning yaxshiligi
4. Xomushlikning foydasi
5. Ishq va yoshlik
6. Notavonlik va qarilik
7. Tarbiyaning kuchi
8. Suhbat odobi

Sa'diy har bir bobda shu masalalarga muvofiq kichik hajmli ibratli hikoyalar keltiradi, she'riy parchalarda yoki hikmatli so'zlarda "qissadan hissa" chiqariladi.

Sa'diy Sheroziy o'z ijodiyoti bilan Sharq va G'arb xalqlari adabiyotiga samarali ta'sir etdi. Uning "Guliston"idan ilhomlangan Abdurahmon Jomiy "Bahoriston" asarini, Majididdin Xofiy "Xoriston" va Habib Kaoniy Sheroziy "Pareshon" asarlarini yaratdilar.

Navoiy, Bobur, Munis, Ogahiy, Furqat va Avloniy kabi o'zbek yozuvchilari Sa'diyning ustoz san'atkor sifatida ta'riflaydilar, undan o'rganadilar va ayrim g'azallariga nazira va taxmislar bitganlar.

Volter, Lafonten va Gyote kabi mashhur Yevropa yozuvchilari ham Sa'diy ijodi bilan tanishib, undan ma'lum darajada bahramand bo'lganlar.

Volter Sa'diy ijodi bilan tanishib, uning asarlarini fransuz tiliga tarjima qilgan edi. Lafonten va Gyote esa uning ayrim hikoya va g'azallaridan ijodiy foydalangan edilar.

Sa'diy asarlari nemis tiliga ham o'girilgan va boshqa bir qancha xalqlar tillariga ham tarjima qilingan.

“Guliston” rus tiliga ko‘p marta tarjima qilingan. Bular orasida A.Kozimbek (1829), S.Nazaryans (1857), K.Lombars (1862), I.Xolmagorov (1882), E.E.Bertels (1922) tarjimalari mavjud. Bu nodir asar 1390-1391-yillarda Sayfi Saroyi, XIX asrning ikkinchi yarmida mashhur shoir Ogahiy, 1909-yilda Murodxo‘ja domla Solihxo‘ja o‘g‘li tomonidan o‘zbek tiliga ham tarjima qilingan.

II bob. “Guliston” asari Sayfi Saroyi tarjimasida

Sayfi Saroyi o‘zbek mumtoz adabiyotining yirik namoyondalaridan biridir. U lirik va epik shoir, noshir va tarjimon sifatida o‘zbek mumtoz adabiyoti va o‘zbek tili taraqqiyotiga muhim hissa qo‘shgan shoirdir.

Sayfi Saroyi “qamishli yurt”da – hozirgi Xorazm viloyatining Sariqamish qishlog‘i deb taxmin qilinadi – tug‘ilgan. Bilim olmoq uchun g‘urbat va musofirlikda yurt kezadi. Nihoyat Oltin O‘rda davlatining Saroyiga kelib qo‘nim topadi. She‘riyat bilan shug‘ullanadi, Sayfi Saroyi nomi bilan shuhrat topadi. Sayfi Saroyidan bizga adabiy meros bo‘lib bir qancha g‘azal, qasida, qit‘a, ruboiy, chiston, “Suhayl va Guldursun” dostoni, “Sindbodnoma”, “Guliston” kabi asarlarning erkin tarjimalari yetib kelgan.

Sayfi Saroyi zamonasining mohir san‘atkoridir. U badiiy so‘z sirlarini yaxshi idrok etgan, she‘riyat qonun-qoidalarini mukammal egallagan shoirdir. Sayfi Saroyining “Guliston” asarining tarjimasi haqida fikr yuritishdan oldin Shayx Sa‘diyning “Guliston” asari, uning yozilish sabablari, maqsad va g‘oyalari haqida ma‘lumot bermoqchimiz. Sa‘diy o‘zining “Guliston” asarini yozishga kirishishdan oldingi holati, o‘y-fikr va mulohazalari, asarning yozilish sabablari haqidagivoqealarini quyidagicha bayon etadi.

Bir kun kechasi o‘tgan kunlarimni eslab, behuda ketgan umrimga afsus-nadomatlar chekar, ko‘nglim uyi toshini olmos yanglig‘ ko‘z yoshlarim bilan teshar va o‘z holatimga munosib tushadigan ushbu baytlarni o‘qir edim:

Har damda umrdan nafas o‘tadi,
Bir qiyo boqquncha yitib ketadi!
Uyquda o‘tganday o‘tdi ellik yil,
Qolgan besh kun umr qayg‘usin qilgil.

Ishni bitirmagan uyatda qolur,
Karvon nog'orasidan ortda qolur.
Yo'lovchining tonggi shirin uyquasi,
Manzilga yetishga to'siq bo'lg'usi.
Kim bu yerga keldi, bir bino soldi,
O'zi jo'nab ketdi, o'zgaga qoldi.
Birovlar qilsa ham shuningdek havas,
Imorat bitmadi, bitmadi nafas.
Vafosiz dunyoga dil berma zinhor,
Hech kimga do'st bo'lmas charxi kajraftor.
O'ladi shubhasiz yaxshi ham yomon,
Baxtlidur yaxshi nom qoldirgan inson.
Tiriksan go'ringga gullar ekib qol,
Keyin qo'zg'almoqqa qolmagay majol.
Davron oftobu, umr xuddi qor,
Tiriksan, mag'rurlik qilmog'i zinhor.
Puling yo'q, bozorda nima qilasan,
Qo'rqaman sallangdan ajrab kelasan.
Kimki o'z hosilin xom yeb tugatar,
Kuz kuni xirmondan mashoqlar terar.¹

Shunday xayollarga borib, o'ylab ko'rganimdan so'ng oxirida pushaymon qilmaslik va kelgusida o'z sha'nimga quyidagi baytni ep bilmaslik uchun xilvatga chekinishim, do'stlar suhbatini tark qilishim, siyna daftaridagi behuda so'zlardan qutulishim kerak, degan qarorga keldim.

Biror burchakda tilsiz, gungu lol o'tirguvchi odam,
Tilini tiymoqni bilmovchi kishidan afzalu ko'rkam.

¹Sa'diy. Guliston, T., 1968. 12-bet. G'.G'ulom, Sh.Shomammedov, R.Komilov tarjimalari.

Shu vaqt bir mahallar g'am kajavasida hamrohim, hujramda dilxohim bo'lgan do'stlarimdan biri, eski odati bo'yicha, eshigimdan kirib keldi.

U qanchalar hazil-mutoyibalar qilmasin, men unga javob bermadim, ibodatdan bosh ko'tarmadim. Shunda uning ko'ngli o'ksidi, menga qarab dedi:

Bukun so'zlamogga senda imkon bor,
Har qancha yaxshi so'z topsang, aytib qol.
Ertaga ajalning elchisi kelgach,
Tiling qimirlashga topmagay majol.

Yaqin do'stlarimdan biri unga voqeani tushuntirib dediki, "Sa'diy qolgan umrini toat-ibodatda, xomushlik, sukunatda kechirmogga azm va jizm etdi. Agar qurbing yetsa, sen ham shunday qilmog'in maslahatdir".

Do'stim javobida dedi:

Xudoning azimligi va oramizdagi do'stlikning qadimiyligiga qasamki, agar u men bilan avvalgidagi yanglig' muomalada bo'lmasa, uni tashlab ketolmayman, nafas ololmayman, tashqariga yo'l solmayman. Chunki do'stni ranjitgan nodon, ammo qasamni buzmoq osondir. Ichgan qasamining gunohini osongina bartaraf eta oladi, biroq uning tanlagan yo'li nodurustdir. Oqillar nazdida Alining qilichi g'ilofida va Sa'diyning tili komida harakatsiz turmog'i mantiqdan xorijdir.

Og'iz ichida til nedur, ey oqal?
Hunar xazinasin kalididur u.
Eshik yopiq ekan bilib bo'lmagay,
U yerda nima bor, munchoqmi, inju.
Agarchi bilimdonlar huzurida jim turish
Odobdur. Ammo payti kelganida so'zlab qol.
Ikki hol aqlsizlik: gap kelganda gapirmay,
Zarur chog'da jim turmay, bo'lib ketish so'zamol.

Xulosai kalom, u bilan so‘zlashmaslikning ilojini topa olmadim, shunday odam suhbatidan yuz o‘girishni muruvvatdan deb bilmadim, zero,ki, u mening samimiy o‘rtog‘im, sadoqatli do‘stim edi.

Zarurat yuzasidan gaplashmoqqa boshladik-da, shavqu zavqqa to‘lgan holda sayr etgali shahar tashqarisiga chiqdik. Fasli navbahor, qahraton sovuqning kuchi ketgan, gulu chechaklar davroni yetgan edi.

Daraxtlar ustida yashil ko‘ylagi

Bayramda baxtlilar kiyganday yangi...

Do‘stlarimizdan birining bog‘ida tunab qolishga to‘g‘ri keldi. Bu juda ajoyib bir joy bo‘lib, g‘oyatda safobaxsh, dilrabo, daraxtlari bir-biriga ayqashib ketgan, yeriga rango-rang shisha parchalari to‘shalganga o‘xshar, tepadan osilib turgan uzum boshlari esa “Surayyo” yulduzlar turkumini eslatadi.

Irmoqlar shildiroq, jannatday bog‘lar,

Qushlarning sayrashi mukammal, mavzun.

O‘ru qir lolalar bilan rango-rang,

Mevali daraxtlar ajib gunogun.

Daraxtdan quyiga tushgan ko‘lanka

Yerlarni gilamday bezar bus-butun.

Erta tongda shaharga qaytmoq fikri bog‘da qolmoq orzusidan g‘olib kelgan mahalda, do‘stim etagini atirgul, rayhon, sunbul, nozbo‘ va boshqa gullar bilan to‘ldirib, yo‘lga chiqmoq taraddudida ekanini ko‘rdim.

Unga dedim: “O‘zingdan maxfiy emaski, gulning bahosi va gulistonning vafosi yo‘qdir”. Donishmandlar: “Har nimarsaki, bevafor – muhabbat qo‘yishga noravodur!” – deb juda to‘g‘ri aytganlar. Do‘stim dedi: “Xo‘sh, u holda tadbir nima?”. Men unga javob berib dedimki: “Mutolaa qilganlarga safo, tinglaganlarga shifo baxsh etadigan “Guliston” nomli kitob yozishim mumkin, uning yaproqlariga kuz faslining shafqatsiz

qo‘li yetmaydi va zamona o‘zgarishlari uning xurram bahorini hazin kuzga aylantira olmaydi”.

Har nechuk gul dilingni qilmas chog‘

“Guliston”imdan ol biror yaprog‘.

Gul zamoni besh, olti kundur bas,

Bu “Guliston” hamisha pok nafas.

Shu so‘zlar og‘zimdanda chiqar-chiqmas do‘stim etagidagi gullarni yerga to‘kib, mening etagimga yopishdi-da, xitob qildi:

“Karam sohibi bo‘lgan odam va’da berdimi va’dasiga vafo qilmog‘i lozim!”

O‘sha kunning o‘zidayoq kitobning notiqdarga fasohat, adiblarga mahorat baxsh etadigan “Muomala va suhbat qoidalarini” deb atalmish dastlabki ikki fasli bitdi.

Qisqasi, gulistonda gullar tugamay, hamon, bitib tayyor bo‘ldi “Guliston”...¹

Kitobni bitirib, boblarga ajratar ekanman, maqsadni muhtasir ravishda ifodalamoqqa alohida e’tibor berishni lozim ko‘rdim va kitobxonlar zerikib qolmasinlar uchun jannat bog‘lariga o‘xshab ketadigan ushbu “Guliston”ni sakkiz bobga taqsim qildim:

- I. Podshohlar odati bayoni
- II. Darveshlar axloqi bayoni
- III. Qanoatning fazilati bayoni
- IV. Sukut saqlashning foydalari bayoni
- V. Ishq va yoshlik bayoni
- VI. Zaiflik va keksalik bayoni
- VII. Tarbiyaning ta’siri bayoni
- VIII. Suhbat qoidalarini bayoni¹

¹Sa’diy. Guliston, G‘.G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, T., 1968., 12-15-betlar.

Sayfi Saroyi o‘z davrining yetuk kishilaridan biri edi. Bilimi va salohiyati uni Sa‘diyning “Guliston” asarini tarjima qilishga undadi.

1390-91-yillarda Sayfi Saroyi ushbu mashhur asarni tarjima qilishga kirishdi.

“Guliston”ni tarjima qilishga kirishganini shoirning o‘zi shunday sharhlaydi:

“Ilk yoz kunlaridan bir kun, bo‘ston ichinda, gullar orasida bir necha zarif olimlar bilan o‘turub, insho ilmindin bahs qilib abyoti g‘arib va ash‘ori ajib o‘qudum esa, ul olimlarning ullusi (ulug‘i) aruz ilmindin bir mushkul baytning taqattu‘in savol etti

Filhol javobin eshitib aytti: “Ey adibi g‘arib, senga bir muvofiq nasihatim bor, qabul qilsang xayr bo‘lg‘ay”. Ayttim: “Buyuring”. Aytti: “Shayx Sa‘diy “Guliston”ni turkiy tarjima qilsang, bir sohib davlat er otini yodgoring jahona qolsun deb”.

Shu suhbatdan so‘ng Sayfi Saroyi tarjimaga kirishadi va uni Misr sultoning Hojibi — xos begi Batxosbekka bag‘ishlaydi.

Muallif-tarjimon muqaddimada:

Bu Guliston ziynati Batxosbek

Hotibul – huttobi sulton, xos bek...

Bu Guliston bog‘boni ul adib,

Kim Saroyi Sayf erur nazmi g‘arib, - deb ta‘rif etadi.

Sayfi Saroyi “Guliston” asarining asosiy mag‘zini olib, uni o‘z zamonasi ruhini aks ettiruvchi yangi hikoyatlar, qit‘a va baytlar bilan to‘ldirib, o‘z ona tilida xalqiga taqdim etdi.

Sayfi Saroyi buyuk fors-tojik klassigi Shayx Sa‘diyning “Guliston” asarini tarjima qilish bilan Sharqning bu buyuk mutafakkiri va adibining

¹Sa‘diy. Guliston, G‘.G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, T., 1968., 19-betlar.

axloqiy-ta'limiy qarashlarini targ'ib etish, uning ijodiyoti bilan o'zbek va boshqa turkiy xalqlarni tanishtirishni maqsad qilib qo'yadi.

Tarjimon asarning aslini deyarli saqlagan holda, Sa'diy she'rlarini ijodiy qayta ishlaydi, mustaqil, original she'rlar kiritadi, o'zbek va boshqa turkiy xalqlarning og'zaki adabiyoti na'munalaridan foydalanadi.

Sayfi Saroyi o'z tarjimasini "Gulistoni bit turkiy" deb ataydi. Asarda Sa'diy "Guliston"idagi boblar asosan saqlab qolingan.

"Gulistoni bit turkiy" asaridagi hikoyatlarda xilma-xil obrazlar va harakatlar mavjuddir. Bunda turli ijtimoiy tabaqalar ishtirok etadilar: shohlar, vazirlar, amaldorlar, ruhoniylar, olimlar, hunarmandlar, dehqonlar, cho'ponlar, darveshlar, o'g'rilar, pahlavonlar, savdogarlar va boshqalar.

Sayfi Saroyi har bir hikoyatni boshlashdan oldin fors-tojik adabiyotini bebaho falsafiy axloqiy obida bilan boyitgan Sa'diyni ehtirom bilan tilga oladi. So'ngra o'z g'oyaviy niyati asosida muayyan sarguzashtni izchil mantiq bilan bayon etishga o'tadi. Deyarli barcha hikoyatlar didaktik mazmundagi hikoyatlardir. Bunda Sayfi Saroyi ba'zan Sa'diy tilidan, ba'zan muallif (men) tilidan so'zlash usulini qo'llaydi. Biror bir kichik voqeani hikoya qilish orqali qissadan hissa bilan kishilarga pand-nasihatlar qiladi, o'gitlar beradi. Hikoyatlarda to'g'rilik, rostgo'ylik, sadoqat va marhamat kabi olijanob insoniy fazilatlar targ'ib etiladi.

Shayx Sa'diy "Hunarga ega bo'lgan donishmand kishi uchun hayotda ikki umr kerak, tokim birida tajriba hosil qilsin, ikkinchida shu tajriba asosida ish ko'rsin" degan edi. Yoshlik va yigitlik yillarini sayohat va izlanish bilan o'tkazdi, keksalik va qarilik ayyomida kechmish va hayot tajribalarini badiiy asarlarida aks ettirib, ijodiy ishga berildi.

"Xazon yeli bo'stonni qanday xarob qilsa, adolatsizlik ham, - degan edi u, - dunyoni shunday xarob qiladi".

Mana shunday g'oyalar "Gulistoni bit turkiy"da ham to'la berilgan.

Yaxshilik va yomonlikning nimaligini, boylik va qashshoqlik, podsho kim, gado va darvesh kim, ular qanday muomalada bo‘lmog‘i kerak, yaxshi hokim qanday bo‘lmog‘i darkor, odamlar nimaga intilmoqliklari zarur, bular ustoz Sa‘diyning fikrlari edi.

Ayni chog‘da Sayfi Saroyi ham shu g‘oyalarga qo‘shiladi va buni o‘z ona tilida tarannum etadi.

Sayfi Saroyi hayotiy voqealarni tasvirllovchi hikoyatlarga:

Ichirib elga qoshiq birla sho‘rva,
Cho‘mich sopi bilan ko‘zni chiqarma.
Oldingda yuvosh qo‘ytingin mushfiq yor,
Ortingda bo‘ri kabi teringni yirtar.
Og‘ach ko‘rki – yemish, erning – karamdir,
Karamsiz er vujudida xalamdur.
Amalsiz olim – ko‘zsiz hiylagarga o‘xshar.
Hunar zoye bo‘lur ko‘rguzmasa er,
Hunar ko‘rguzgan er – shaxdu shakar yer!
Javohir qiymati yo‘q qon ichinda,
Kelib elga topur ul bosh uza yer.
Ayo kelgan jahonga, eygulik et,
Yomon ishni yomonlarga qo‘yib ket.
Sen eygu bo‘l, yomon deysun xaloyiq,
Yomon bo‘lib, senga yaxshi – deguncha

kabi xalq maqol va o‘gitlaridan na‘munalar kiritadi. Bularga o‘z she‘rlari, latifalarini qo‘shish orqali o‘zi yashagan davrdagi kamchilik va chirkinliklarni ochib tashlaydi. Ayrim hikoyatlardan namunalar keltiramiz:

Bir sulton o‘z xalqiga zulm qo‘lini uzatib, jabr eta boshladi. Xaloyiq zulmdan bezib, yurti tashlab keta boshladi. Bundan viloyat nuqson topdi, xazina bo‘shab, dushman g‘olib bo‘ldi.

She'r:

Zulm qilsa malik raiyatga,
Lojaram mamlakat xarob bo'lur.
Lutf dushmanga ko'rguzur bo'lsang,
Do'stluq shartin ul tomon qilur.

Bir kuni bu Sulton majlisida "Shohnoma" kitobini o'qur edilar. Nima sababdan Zahhok mag'lubiyatga uchraganligi va Faridun mamlakatni qanday idora qilar edi, degan qismda Sulton vazirdan: Faridunning moli va lashkari ul qadar ko'p emas edi, nega u hukumatni qo'lga oldi? – deb so'radi. Vazir aytdi: Xalq tilab kelib muovanat qildilar. U dog'i karam ko'rguzub Sulton bo'ldi. Xalqning kelmaki sulton ko'rkidur. Bas, sen ne uchun xalqni tog'itursan, magar mamlakatni tark etib ketmak tilarsan?

She'r:

Xush ko'r bu raiyatnikim, naf'i farovondur
Ne yerdaki sulton bor, munlar bila sultondur.

Yana vazirdan: Xalqning jam bo'lmog'iga sabab nima? – deb so'radi. Vazir: Sulton shafqatli, odil, mushfiq bo'lmog'i kerak, shunda xalq yaxshi hayot kechirib, mamlakatda tinchlik qaror topadi, – deb javob berdi. Vazirning nasihati Sultonga xush kelmadi. Vazirni qamashga buyurdi. Bir necha kun o'tgach, Sultonning qarindoshi undan otasidan qolgan mulkning hissasini talab qildi.

Bu Sultondan zulm ko'rgan odamlarning barchasi atosi mulkini talab qilgan kishi tomonga o'tdi. Shundan so'ng mamlakat zolim qo'lidan chiqib, bularga tobe bo'ldi.

She'r:

Ul malikkim doim elga va o'luqsa kuch qilur,
Oqibat mulkin elindin bir qaviy dushman olur.
Kel, raiyat birla sulh et, hasdan forig' yur,

Chun raiyatdur bilursan shohi odil lashkari.

Yana bir hikoyat:

Bir solih er ming botmon tosh ko'taradigan pahlavonning g'azabi kelib, og'zi ko'piklanib yotganini ko'rib, "Bunga ne bo'lubtur?" – so'radi. U esa: "Bu ablah ming botmon toshni ko'tara oladiyu bir so'kishni ko'tara olmas ekan-da", – dedi. She'r:

Bu erlikda o'kunub lof urursan,
Nechun san nafsingga ojiz bo'lursan?
Dagul erlik – og'izga yumruq urmoq
Er ersang quy og'izga bolu qaymoq.

Keltirilgan she'riy parchalar shoir maqsadi, g'oyasini ochishda muhim ahamiyat kasb etadi. Yana bir hikoyat:

Bir faqir er yo'qsulluq o'tida kuyub, kiyimini tikib o'lturib ushbu baytni o'qir edi. She'r:

Quri ekmak oshab, xirqa kiyarga chun qanoatman,
Xaloyiq minnatin bori ko'tarmakdan farog'atman.

Bir kishi unga aytti:

"Ne o'turursankim, falon xoja karam qo'lin ochib, fuqaro xizmatiga belin bog'lab turur". Shu chog' faqir unga qarab: "Tek turg'ulkim, yo'qsullar o'tida kuymak bir kishiga borib, xojat tilashdan yaxshiroqdur", – deb javob berdi. She'r:

Iltifot etmas ko'rub och o'lturub sobir faqir,
Ne'mati ko'p xojalarning boliga va bog'iga.
Orif erga bil jahannamning azobi birla teng
Kirmagi qo'shni ayog'i birla jannat bog'iga.

Yana bir hikoyat:

Bir shoir o'g'rilar begiga kelib, madh o'qigan edi, o'g'rilar begi: "To'nin yirting-da, bu kentdan suring", – deb buyurdi. To'nini yechib,

o‘zini haydadilar, itlarga tishlatdilar. Yerdan bir tosh olib itlarni urmoqchi bo‘ldi, yer muzlaganligi sababli tosh ko‘chmadi. U qahrlanib: “Bu ne makkora haromzoda toifa dururkim, itlarni yechib, toshlarni bog‘lab o‘tururlar?!” – dedi. O‘g‘rilar begi ul holatni ko‘rub, bu latifani eshitib kuldi-da, ul shoirni chaqirib: “Ey adib, mendan nima kerak bo‘lsa so‘ra”, – dedi. Shoir: “To‘nimni tilmankim, sendan menga bu ulug‘ in‘om bo‘lur, shuningdek, sening qotingdan salomat ketmak ham ayni g‘animatdur”, – dedi.

Ey urushqoqlar begi bir bora yana,
Eygularga hech yomoning tegmasun.
Yordamin so‘ragan kishiga foydang –
Tegmasa, bori ziyoning tegmasun!

O‘g‘rilar begi to‘nini qaytarib, yuz so‘m pul berishni buyurdi.

Sayfi Saroyi Sa‘diyning “Guliston”ini tarjima qilishga kirishar ekan, Sa‘diy hikoyatlarining bayonini berishga qaror qiladi.

“Gulistoni bit turkiy”dagi hikoyatlar bayonida Sayfi Saroyi “Shayx Sa‘diy aytur”, “Sa‘diy aytur” deb boshlaydi.

Sayfi Saroyining o‘zi aytganidek, Sa‘diy “Guliston”idan gul ochib, suhan daryosidan so‘zni mo‘l olib, mazkur asarni o‘zicha, erkin va ijodiy tarjima qilgan. Sayfi Saroyi Sa‘diy she‘rlarini ijodiy qayta ishlab, boshqa shoirlarning she‘rlaridan parchalar keltirib, ayrim joylarini tushirib qoldirib tarjima qilgani uchun u avtorlashtirilgan tarjima tusini oladi. Tarjimon “Guliston” kompozitsiyasi, uning boblari, tematika va nomlanishini saqlab qolib, muqaddimada boblar mundarijasini beradi:

Avvalgi bob: Salotin siyrati ichinda turur

Ikkinchi bob: Fuqaro axloqi ichinda turur

Uchinchi bob: Qanoat fazilati ichinda turur

To‘rtinchi bob: Sukut foydasi ichinda turur

Beshinchi bob: Ishq dag‘i yigitlik sifati ichinda turur

Oltinchi bob: Qarilik dag‘i zaifliq sifati ichinda turur

Yettinchi bob: Tarbiyat ta‘siri ichinda turur

Sakkizinchi bob: Suhbat adablari ichinda turur .¹

Sa‘diy va Sayfi Saroyi karam va saxovatni maqtab, baxillikni qoralab, kishilarni himmatli va saxovatli bo‘lishga chaqiradilar, ezgulik va shafqat-muruvvatni ta‘riflaydilar.

Birovlarning yukini ko‘tarib, mushkulini oson etgan eshakni mardum ozorlardan a‘lo bilib:

... Eshak ul odamiydin yaxshiroq kim,
Qilur doim kishining ko‘nglin ozor – deydi.

Ilm-ma‘rifat va olimlarga e‘tiqod, ehtirom masalalari asarda sezilarli o‘rin olgan. Ilm – bilim kishining ulug‘ fazilati va boyligi. Kishi hamma narsani yo‘qotishi, o‘g‘irlatib qo‘yishi mumkin. Lekin ilm – bilim aslo yo‘qolmaydi. Ammo ilmi bo‘lib unga amal qilmasa u johildir.

So‘zung bu durur kim men falon olimman,
Chun yo‘q amaling yana hamon johilsan.

Asarda xudbinlik, kibr-havo, maqtanchoqlik va nasl-nasab yoki amal bilan kerilish illatlarini ham qattiq qoralanadi.

Asardagi hikoyalar hajm jihatdan juda kichik, lekin mazmunan boy, ibratli hikoyalardir.

Bir kuni No‘shirvoni odilga ov paytida kabob qilib bermoqchi bo‘ldilar, lekin tuz yo‘q edi. Odamlaridan birini qishloqdan tuz olib kelgani jo‘natdilar. No‘shiravon tuzga ketayotgan kishiga: “Tuz bahosini to‘lab ol, toki tekinga olish odat qatoriga kirib, qishloq xarobalikka yuz tutmasin”. Undan so‘radilar: “Shu zig‘irday narsadan qishloqqa qanday zarar yetadi?”. No‘shiravon javob berdi: “Avvalda olamda zulm oz edi, keyinchalik har bir

¹N. Mallayev. O‘zbek adabiyoti tarixi., O‘qituvchi., T., 1976., 265-bet.

kelgan odam bir oz – bir oz qo‘shdi, natijada zulm hozirgi darajasiga kelib yetdi”.

Fuqaroning bog‘chasidan sulton uzsa bir olma,
Navkarlari qo‘poradi daraxtlarning ildizin.
Zo‘rlik bilan beshta tuxum ola qolsa podshoh,
Askarlari sixga tortar tovuqlardan besh yuzin.

Hikoyat:

Luqmoni Hakimdan: “Odobni kimdan o‘rganding?” – deb so‘radilar.
Luqmon javob berdi: “Odobni beodobdan o‘rgandim, ularning harakatidagi
menga maqbul bo‘lmagan narsalardan o‘zimni saqladim”.

Biror esli kishiga hatto hazil so‘z aytsang,
U shundan ham o‘ziga chiqaradi xulosa.
Ammo ahmoq kishiga yuzlab hikmat o‘rgatsang,
Barchasi uning uchun tuyular hazil narsa.

Ulug‘ fors-tojik shoiri Sa‘diyning “Guliston” asari asrlar davomida
ko‘p xalqlarning, nasllarning sevimli kitobi bo‘lib kelmoqda.

Sayfi Saroyi tarjimasi bilan bu asar turkiy xalqlarga yanada manzur
bo‘ldi. O‘zbek adabiyoti va adabiy tilining, o‘zbek nasri va tarjima
adabiyotining qimmatli yodgorligiga aylandi.

Bu qimmatli asar Yevropa va rus tillariga tarjima qilinish bilan birga,
o‘zbek tiliga Sayfi Saroyidan boshqa shoirlar ham qo‘l urganlar. XIX
asrning ikkinchi yarmida mashhur shoir Ogahiy, 1909-yilda Murodxo‘ja
domla Solihxo‘ja o‘g‘li tomonidan ham o‘zbek tiliga o‘girilgan.

Bu nodir asar har bir davr ziyolilarining diqqatini tortib keladi.
Talentli shoir va yozuvchilar, albatta, Sa‘diy ijodiga murojaat qiladilar,
uning donishmandona pand-nasihat va o‘gitlaridan o‘z ijodlarida
foydalanadilar, ilhomlanadilar.

Jumladan, XX asr boshlarida yashab ijod etgan o‘zbek shoiri, dramaturgi, pedagog va jamoat arbobi Abdulla Avloniy o‘z ijodida Sa’diy g‘oyalari, uning axloq-odob haqidagi oqilona fikrlaridan unumli foydalanadi.

O‘z davrida yangi avlodni ma’rifatli va ilimli qilib tarbiyalashga bel bog‘lagan Abdulla Avloniy Sa’diyning “Guliston” asari ta’sirida “Turkiy Guliston yoxud axloq” nomli asarini yaratadi.

Bu asar o‘z vaqtida yoshlarni yangicha yo‘nalishda o‘qitish va an’anaviy milliy ruh asosida tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Sayfi Saroyi “Iso mo‘jizasi” nomli hikoyatni kiritadi. Unda Olloh tomonidan ko‘pgina mo‘jizalar berilgan Iso alayhissalomga berilgan o‘liklarni tiriltirish xislati haqida so‘z boradi. O‘liklarni tiriltirish qobiliyatiga ega bo‘lgan Iso alayhissalomga bir kishi murojaat qilib, o‘sha xislatni unga o‘rgatishni iltimos qiladi.

Iso alayhissalom har qancha mumkin emas, unday mo‘jiza faqat o‘ziga xosligini uqtirmasin, u odam ko‘nmaydi. Qayta-qayta iltimos qilaverib holi joniga qo‘ymaydi. Ha mayli, deb u mo‘jiza sirini o‘rgatadi. Hursand bo‘lgan haligi kishi yo‘lda ketayotib, bir joyda uyulib yotgan suyaklarga duch keladi. Ul duoni o‘qib, tiriltiradi. Suyaklar o‘lgan sherning suyaklari bo‘lib, tirilgach, u odamni yeb qo‘yadi.

Abdulla Avloniyning “Turkiy Guliston yoxud axloq” nomli asari 1913-yilda yozilgan bo‘lib, o‘zbek badiiy pedagogikasi tarixida o‘ziga xos o‘ringa ega. Bu asar shakl, qurilish (kompozitsiya), mazmun va maqsad jihatidan buyuk fors shoiri Shayx Sa’diyning “Bo‘ston” va “Guliston” nomli jahonga mashhur asarlarining an‘analari ruhida yozilgan. Buni asarning nomiyoq aytib turibdi.

Abdulla Avloniy “Turkiy Guliston...” asarini o‘z davrining maktablari, yoshlari, xususan, yuqori sinf o‘quvchilari uchun qo‘llanma tarzida yaratgan.

Asarning tub mohiyatini yoshlarni ma’rifatga chorlash, sharqona, ko‘p asrlik milliy an’analarimiz ruhidagi tarbiya ishining yo‘l-yo‘riqlarini talqin etish, ayni vaqtda ta’lim-tarbiya sohasida ya’ni asrning ilg‘or talablarini qo‘yish, axloq muammolarining shaxs kamoloti va jamiyat ravnaqidagi o‘rnini yoritish tashkil etadi. Abdulla Avloniy “Turkiy Guliston...”da yaxshi va yomon xulq, ruh, fikr, axloq, uy va maktab tarbiyalari haqida mulohaza yuritarkan, ularning har biridagi o‘ziga xos tomonlarni ochib berishga harakat qiladi. Uning o‘qish, o‘qitish tarbiya ishlarida davr talabi asosida islohotni amalga oshirish nihoyatda zarur degan fikri o‘z zamoni uchun ham, bugungi kun uchun ham qimmatlidir.

“Alhosi, tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir”, - deb yozadi Avloniy.

Shunisi alohida diqqatga sazovorki, Avloniy Sa’diyning “Guliston”i ta’sirida “Turkiy Guliston”da tarbiyaviy ishlar bugun deyarli unutilib borayotgan diyonat, sa’y va g‘ayrat, riyozat, shijoat, qanoat, sabr, hilm, nafs, vijdon, iffat, hayo, viqor, hifzi lison, munislik, xayrixohlik, oliyhimmatlik kabi yuksak axloqiy tushunchalar ilm egallash va vatanparvarlik g‘oyalari; zulm, nifoq, ta’ma, hasad, loqaydlik, g‘iybat, haqorat, uyatsizlik, chaqimchilik, adovat, xasislik, vijdonsizlik, johillik, g‘azab, xiyonat singari shaxs tabiatidagi yomon xulqlar millat va vatan saodatiga e’tiborsizlik va bepisandlik bilan bog‘liq holda muhim ijtimoiy muammo sifatida talqin etiladi.

Asar quruq pand-nasihatlardan iborat emas. Undan chiqadigan xulosalar el-yurtga sodiqlik va vatanparvarlikdir.

“Men xastayamu millatim o‘lmish nega bemor?” deydi Avloniy kitobning boshlanishida va xasta dilni, bemor millatni davolashning asosiy yo‘li nimadan iborat? – degan savolga butun asar davomida javob berishga intiladi. Asardagi barcha Sa’diyona naql, hikoyatlar g‘oyasidan kelib chiqadigan badiiy mantiq shuki, insonni barkamol etish va millatni ravnaq toptirishning asosiy yo‘li – har bir shaxsning yuksak axloqli va ma’naviy go‘zal, ilmi va ma’rifatli bo‘lishiga erishishdan hamda butun kuch-quvvat, aql-zakovat, bilimu idrok, aqchayu iqtisod – barchasini vatan ravnaqi va xalq saodatiga yo‘naltirishdan iboratdir.

“Amerikaliklar bir dona bug‘doy ekub, yigirma qadoq bug‘doy olurlar. Ovrupolilar o‘zimizdan olgan besh tiyinlik paxtamizni keturub, o‘zimizga yigirma besh tiyinga soturlar! Ammo biz osiyolilar, xususan, turkistonliklar dumba sotub, chandir chaynaymiz, qaymoq berib, sut oshiyimiz, non o‘rniga kesak tishlaymiz!” – degan fikrlar ulug‘ adib Abdulla Avloniy asr boshidayoq bu masala xususida nechog‘li chuqur va teran mushohada yuritganini ko‘rsatib turibdi.

Bu – o‘zligimizni anglash uchun, o‘z qadrimizga yetish, istiqlolni qo‘lga kiritish uchun aytilgan dadil va jasur fikrlar edi. Biz haqiqiy mustaqillikni qo‘lga kiritgandan keyingina o‘shanday kamchiliklarni bartaraf etish, o‘shal da’vatni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘ldik.

Hozir alohida iftixor bilan takrorlayotganimiz – muqaddas hadisda aytilgan “Hubbul vatan – minal iymon” – Vatanni sevmak iymondandir deyilgan fikrga ham Abdulla Avloniy o‘zining “Turkiy Guliston...”ida alohida o‘rin ajratgan.

Avloniy yozadi: “Hifzi lison deb har bir millat o‘z ona tili va adabiyotining saqlamagini aytilur. Har bir millatning dunyoda borligini ko‘rsatadurg‘on oynayi hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo‘qotmak millatning ruhini yo‘qotmakdir. Hayhot, biz turkistonliklar milliy tilni

saqlamak bir tarafda tursin, kundan-kun unutmak va yo‘qotmakdadurmiz. Tilimizning yarmiga arabiy, forsiy ulangani kamlik qilib, bir chetiga rus tilini ham yopishdurmakdadurmiz.

Durust, bizlarga hukumatimiz bo‘lg‘on rus lisonin bilmak hayot va saodatimiz uchun osh va non kabi kerakli narsadur. Lekin o‘z yerinda ishlatmak va so‘zlamak lozimdur”.

Axloqiy-falsafiy mazmunga ega bo‘lgan “Turkiy Guliston yoxud axloq” xuddi Sa‘diy va Sayfi Saroyi asarlari kabi badiiy teran va go‘zal asardir. U:

1. Axloq.
2. Tarbiya.
3. Yaxshi xulqlar.
4. Yomon xulqlar deb nomlangan qismlarga bo‘linadi.

Ularning ichida har bir muhim axloqiy tushunchani yoritishga alohida parcha ajratiladi va u mo‘jaz naql, ixcham hikoyatlar bilan bezatiladi. Muallifning ayrim qisqa-qisqa, badiiy jihatdan teran iboralari ko‘pincha maqol, matal yoxud aforizm darajasiga ko‘tariladi. O‘rni kelganda “Qur’oni karim”dagi ulug‘ falsafiy kalomlardan ham unumli foydalanadi. Ayniqsa, tarixiy shaxslar bilan bog‘liq naqlar, ixcham rivoyatlar, hikoyatlar asarga joziba bag‘ishlaydi.

Asardan ayrim namunalar keltiramiz:

A x l o q

Insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytarguvchi bil ilmdur. Yaxshi xulqlarning yaxshiligini, yomon xulqlarning yomonligini dalil va misollar ila bayon qiladurg‘on kitobni axloq deyilur.

Axloq ilmini o‘qub, bilub amal qilgan kishilar o‘zining kim ekanini, yer yuzida nima ish qilmoq uchun yurganini bilur. Bir kishi o‘zidan xabardor bo‘lmasa, ilmni, ulamoni, yaxshi kishilarni, yaxshi narsalarni,

yaxshi ishlarning qadrini, qimmatini bilmas. O‘z aybini bilib, iqrar bo‘lub, tuzatmakka sa’y va ko‘shish qilgan kishi chin bahodir va pahlavon kishidur...

So‘ylasang, so‘yla yaxshi so‘zlardan,
Yo‘qsa, jim turmoqing erur yaxshi.
O‘ylasang, yaxshi fikrlar o‘yla
Yo‘qsa gung bo‘lmoqing erur yaxshi.
Ishlasang, ishla yaxshi ishlarni
Yo‘qsa, bekorlig‘ing erur yaxshi.

X u l q

Inson ikki narsadan murakkabdur. Biri jasad, ikkinchisi nafsdur. Jasad ko‘z ila bor narsalarni ko‘rur. Ammo nafs idrok ila yaxshini yomondan, oqni qoradan ayirur. Jasadning ham, nafsning ham biror suvrati bordurki, yo yaxshi va yo yomon bo‘ladur.

Jasadning suvrati hammaga ma’lum bir narsadurki, har vaqt ko‘zga ko‘rinib turadur. Ammo nafsning suvrati ko‘zga ko‘rinmaydurgan, aql ila o‘lchanadurgan bir narsadurki, buni xulq deb atalur.

Agar bir kishi yoshlikdan nafsi buzilib, tarbiyasiz, axloqsiz bovlilib o‘sdimi “Ollohu akbar”, bunday kishilardan yaxshilik kutmak yerdan turib yulduzlarga qo‘l uzatmak kabitur.

“Bir tog‘ning o‘rnidan ko‘chub ketgonini eshitsangiz, ishoningiz, ammo bir odamning xulqi boshqa bo‘ldi, deb eshitsangiz, ishonmangiz”, - demishdur.

Xulqi yomon yuz go‘zalidan na sud
Yuz go‘zali xulqni qilmas kashud.
Xulq mariziga davo istasang,
Marg davosin berilur – qistasang.
Xulqi yomonning keturur ko‘p zarar,

Xulqing o‘zi boshingga kaltak urar.

Xulqi fano bo‘lsa, degil alhazar,

Xoru zalillikda qolur darbadar.¹

Y a x s h i x u l q. Y o m o n x u l q.

Axloq ulamosi insonlarning xulqlarini ikkiga bo‘lmishlar. Agar nafsi tarbiyat topib, yaxshi ishlarni qilurga odat qilsa, yaxshilikka tavsif bo‘lib, “yaxshi xulq”, agar tarbiyatsiz o‘sub, yomon ishlar ishlaydurg‘on bo‘lib ketsa, yomonliqqa tavsif bo‘lub, “yomon xulq” deb atalur. Insondagi qobiliyatni kamolga yetkurmak tarbiya ila bo‘ladur. “Qush uyasida ko‘rgonin qiladur”. Inson javhari qobildur. Agar yaxshi tarbiya topib, buzuq xulqlardan saqlanub, go‘zal xulqlarga odatlanub katta bo‘lsa, har kim qoshida maqbul, baxtiyor bir inson bo‘lub chiqar. Agar tarbiyatsiz, axloqi buzulib o‘ssa, har xil buzuq ishlarni qiladurg‘oni nodon, johil bir rasvoyi odam bo‘lib qolur.

Xudoning rahmati, fayzi hama insonga aksardur,

Va lekin tarbiyat birla yetushmak sharti akbardur.

Tug‘ub tashlov bila bo‘lmas bola, bo‘lg‘ay balo siza

Vujudi tarbiyat topsa, bo‘lur ul rahnamo siza.

Temirchining bolasi tarbiyat topsa, bo‘lur olim,

Buzulsa xulqi, Luqmon o‘g‘li bo‘lsa, bo‘lg‘usi zolim.

Yomonlarga qo‘shuldi Nuhning o‘g‘li, bo‘ldi beimon,

Yururdi Kahf iti xo‘blar ila, bo‘ldi oti inson.²

Bir qismini o‘z nafsimizga, bir qismini bir-birimizga qarshu ishlatmak uchun kerakli bo‘lgan yaxshi xulqlar: fatonat, diyonat, nazofat, g‘ayrat, riyozat, qanoat, shijoat, ilm sabr, hilm, intizom, miqyosi nafs, vijdon, vatanni suymak, haqqoniyat, nazri ibrat, iffat, hayo, idrok va zaki,

¹O‘zbek adabiyoti. Majmua. O‘qituvchi, T., 1997., 18-bet.

²O‘zbek adabiyoti. Majmua. O‘qituvchi, T., 1997., 18-19-betlar.

hifzi lison, iqtisod, viqor, xavf va rajo, itoat, haqshunoslik, xayrixohlik, munislik, sadoqat, muhabat va avfdur. Mana shu yozdigimiz yaxshi xulqlar aql va shar'iy sharifga muvofiq. Emdi bu yaxshi xulqlarni qovlga olmak uchun ota-ona, muallim ustodlarimiz hazratlarining hikmatli nasihatlarini jon qulog'i birla tinglab, doim xotirda tutmoq, axloqi yaxshi kishilar bilan ulfat bo'lmak, axloqi buzuq, yomon kishilardan qochmoq lozimdur.

Yaxshi birla yursa har kim maqsudi hosil bo'lur,

Yursa nodonlar ila bir kun borib qotil bo'lur.

Kattalar qilgan nasihatni kichiklar olmasa,

Oqibat xulqi buzuq, bir beadab johil bo'lur.

Mashhur adib Shayx Sa'diyniing asari an'analari ruhida yozilgan Avloniyniing "Turkiy Guliston yoxud axloq" asari insonlarni olijanob ruhda tarbiyalashda har doim qimmatli manba bo'lib qolaveradi.

III bob. Shayx Muslihiddin Sa'diy Sheroziy ijodining o'zbek adabiyotiga ta'siri

Shayx Sa'diy ijodi fors-tojik adabiyoti tarixida alohida sahifani tashkil qiladi. U yirik shoir, buyuk mutafakkir, yetuk adib sifatida bu adabiyot sahifasini boyitibgina qolmay, balki uning shuhratini jahonga taratdi. Fors-tojik she'riyatida g'azalning adabiy janr darajasiga ko'tarilishi, shakliy takomili, mazmunan boyishi va ko'lamdorligi Shayx Sa'diyning muborak nomi bilan uzviy bog'liqdir. G'azal janriga eng ko'p murojaat etgan, uning dodini berib, g'azaliyot devonlarini tartib bergan ham Shayx Sa'diy hisoblanadi. Shuning uchun Sharqda uni "g'azal mulkining payg'ambari" deb atash an'ana tusini olgan.

Shayx Sa'diy nafaqat she'riyati, balki pandnoma darajasiga ko'tarilgan "Guliston", "Bo'ston" asarlari bilan badiiy so'z san'atining ustoz, axloq-odob, hikmat va donishmandlik mulkining muallimi unvoniga loyiq ko'rilgan.

Yetti yuz yildan ziyodroq davr o'tibdik, badiiy so'z mulki muhoblari Shayx Sa'diy adabiy merosini o'qiydi, uning rangin va zebo asarlaridan zavq hamda ta'lim olishadi.¹

Shayx Sa'diy kalomi o'zining sehrar qudrati bilan Alisher Navoiy qalbiga ham kirib borgan, uni qitiqlagan, badiiy shavqini junbushga keltirgan. Shuning uchun ham Alisher Navoiyning Shayx Sa'diy haqidagi jumalari tagdor, hayajonli, samimiyatga yo'g'rilgan.

Shayx Sa'diyning nuroniy siymosi hamisha ulug' o'zbek shoirining ko'z o'ngida mayin jilmayib turganday tuyuladi. Uning "Soqiynoma", "Lison ut-tayr", "Holoti Sayyid Hasan Ardasher", "Muhokamat ul-lug'atayn", "Nasoyim ul-muhabbat" kabi asarlarida Shayx Sa'diyning nomi

¹R. Vohidov. Alisher Navoiyning ijod maktabi. Buxoro. 1994. 31-bet.

katta ehtirom va sadoqat bilan eslanadi. U haqda lo‘nda va mazmundor obrazli mulohazalar aytadi.

Jumladan, Alisher Navoiy shoir she‘riyati haqida yozadi: “G‘azalgo‘y akobir va shuaro oldida mundoq muqarrardurki g‘azal tavriga Shayx muhtaridurlar, jonso‘xtalar va ishqibozlarga fil voqe g‘arib haqqe sobit qilibturlar”.¹

“Mahbub ul-qulub”da esa “Maoniy ahlining nuqta pardozi” tarzida tilga olinadi. Navoiy har gal Shayx Sa‘diy haqida mulohaza yuritganida uning ummonga teng ijodiyotining ma‘lum bir qirrasini yoritish yo‘lidan boradi. Ulug‘ o‘zbek shoirining mashhur “Soqiynoma”sida jumladan, shunday satrlar mavjud:

Sa‘diyu, Xisravu, Salmonu Kamol,
Kim edi har biri beshibhu misol.
Garchi charx etti barin mutavori,
Sen alar o‘rnidadursan bori.²

Navoiy Shayx Sa‘diyni fors-tojik adabiyotining ulkan siymolaridan biri sifatida e‘tirof etilmoqda. Alisher Navoiy Shayx Sa‘diy ijodiga fors-tojik adabiyotining yuksak gullaridan biri tarzida qaraydi, uni o‘sha balandlikka munosib sharaflaydi. Navoiy Shayx Sa‘diyning bir qator g‘azallarini tanlab, ularga tatabbular bitadi. Ulug‘ o‘zbek shoiri har bir javobiya g‘azalidan avval “dar tavri Sa‘diy – Sa‘diy tavrida” sarlavhasini qo‘llaydi. Navoiyning fors-tojik tilidagi she‘rlari jamlangan she‘riy to‘plamida o‘n ikki she‘r “g‘azal mulkining payg‘ambari” asarlariga bitilgan tatabbulardan iborat. “Devoni Foni”dagi bunday adabiy hodisa tasodifiy emas.

¹Alisher Navoiy. 15 jild.171-172-betlar.

²Alisher Navoiy 13 jild.20-21-betlar.

She'riyat mulkining javharshunosi sifatida faoliyat ko'rsatgan Alisher Navoiy qator ustozlarining o'ziga manzur, dilkash asarlarini tanlaydi, ular bilan bellashadi. Shu yo'nalishdagi she'rlarida yangi-yangi sarlavhalar, ifoda uslublarini ishga soladi. Masalan, "Devoni Foni" dagi qirqdan ziyod she'r Abdurahmon Jomiy g'azaliyoti ta'sirida paydo bo'lgan. Ulug' o'zbek shoiri shulardan o'ntasiga "Maxdum tavrda" tarzidagi sarlavhani ishlatadi. O'ttizga yaqin g'azallar "Tatabbu'i Mahdum", bittadan she'r "o'sha tavrda", "o'sha uslubda" izohlovchilaridan so'ng joylashtiriladi.

Amir Xisrav Dehlaviyning o'ttizdan ortiq she'rlari Foni-Navoiyning diqqatini jalb etadi va uni ijodiy musobaqa maydoniga chorlagan.

Ma'lumki, har qanday ustoz ijodkorning hamma she'rlari o'zining g'oyaviy yo'nalishi, mazmuni, badiiyati jihatidan bir saviyada bo'lmaydi. Ana shu adabiy haqiqatni hisobga olgan Alisher Navoiy she'rlarni saralash yo'lidan boradi. Qalb torlarini chertishga yaroqli g'azallargagina javobiya aytishga kirishadi. Uning bunday ijodiy izlanishi Shayx Sa'diy g'azaliyotiga munosabatda oydin namoyon bo'ladi. Darhaqiqat, fors-tojik adabiyoti gulshanini bu xushovoz bulbuli tilidan chiqqan mana bu o'ynoqi g'azal har qanday shaxsni o'ziga maftun etmay qo'ymaydi.

Zuhhod shud nishona, dar mehnati zamona,
Az bodai mug'ona xushvaqt maygusoron.
Budam ba ro'z xurram v-az ro'zg'or beg'am
K-u ey rafiqi, hamdam, on ro'zi ro'zgoron.
Foni buvad ba shevan, k-az davri charxi purfon,
Ham do'st gasht dushman, ham chumla do'storon.¹

¹Alisher Navoiy 5-jild.2-kitob.184-bet.

Har ikkala gʻazalni hech ikkilanmay nazirai benazir yoxud maromiga yetgan chinakam ijodiy asarlar deyish mumkin, - deydi olim R. Vohidov. Gʻazalning tashqi belgilariga razm solsak, Navoiy-Foniy Shayx Saʼdiy gʻazalidagi ikki qofiyadosh soʻzni – “yoron”, “roʻzgoron” – saqlagan xolos. Tatabbu bogʻlanayotgan gʻazal sakkiz baytdan iborat. Javobiya esa yetti baytni tashkil qiladi. Foniy-Navoiy ijodiylikka intilgan. Shayx Saʼdiy gʻazalining matlaʼi oshiqning hijrondan iztirobi bilan boshlanadi.

Qoʻy, bahorning sersuv bulutlari misoli toʻyib yigʻlayin,
Chunki yoru doʻstlardan judolik kuni boshga tushganda,
Nafaqat, men, hatto toshdan ham nola sadosi chiqadi.

Nihoyatda rangin, taʼsirchan bayt. Navoiy-Foniy gʻazal boshlanmasidayoq uning gʻoyaviy yoʻnalishi ruhini oʻzgartirib yuboradi. Shoir olamlar sohibi qiyofasidagi Soqiyga murojaat qiladi.

Soqiy, uning borligi koʻngillarga xush yoqadi.
Bagzor, to bigiryam, chun abr dar bahoron!
K-az sang nola xezad roʻzi vidoi yoron!
Har k-u sharibi Furqat roʻze gashida boshad,
Donad, ki saxt boshad qatʼi umedvoron
Bo sorbon bigued ahvoli obi chashmam,
To bar shutur nabandad mahmil ba roʻzi boron.
Bigzoshtand moro dar dida obi hasrat,
Giryon chu dar qiyomat chashmi gunohgoron
Ey subhi shabnishinon, chonam ba toqat omad.
Azbaski der mondi chun shomi roʻzadoron!
Chandin, ki barshumurdam az mogaron ishqat,
Anduhi dil naguftam, illo yak az xazonon
Saʼdi, ba roʻzgoron mehre nishasta bar dil.
Berun kunam hikoyat, sharh in qadar kifoyat,

Boqi nametavon guft, illo ba g'amgusoron.¹

Navoiy-Foniyga shu g'azal yoqqan, uning ilhomini jo'shtirgan, ijodiy musobaqa maydoniga da'vat etgan. Natijada ulug' o'zbek shoirining quyidagi javobiya g'azali yaratildi.

Soqi, hayot baxshad chun bodi navbahoron,
Chun abri raxti hasti kash sui ko'hsoron.
Xotir suxan shunav kun, daftar ba may gvarav kun,
Dar tavri faqr nav kun oyini komkoron.
Bod az Maseh damzad, lola ba ko'h alamzad,
Xush bod k-u qadam zad on su ba xayli yoron.
Mekun ba mayparasti, devonagish masti,
Go', shav zi rangi hasti sharmanda hushyoron.

Navbahor shabadasidek hayot – huzur bag'ishlaydi. Shuning uchun bo'shagan bulutlar tog'larga tomon yurgandek, ko'ngil butun borlig'i bilan unga intiladi. Ko'rinadiki, an'anaviylik ulug' o'zbek shoirini batamom siqib qo'ymagan. U qalbiga cho'g' tashlagan g'azaldan zavqlanadi. Ammo o'sha g'azal qobig'iga o'ralib qolmay, ijodiy kengliklarga intiladi.

Shayx Sa'diy g'azalida matladan boshlangan hijron nidolari g'azalning boshqa satrlariga ham ko'chadi: "Bir kungina ayriliq-furqat sharobini tatib ko'rgan odam, shirin orzulardan voz kechishning naqadar mushkul ekanligini yurak-yurakdan his eta oladi".

Navoiy-Foniy matlaida soqiy haqida gap ketgan edi, uning keyingi misralari may va u bilan bog'liq holatlar tasviriga qaratilgan.

"Xotira jilovini yangicha yovlantir, so'z tinglashga mayl paydo qilsin. May uchun hatto daftarni ham garovga qo'y. Kutilgan maqsad va baxtning ro'yobga chiqishi uchun faqr fano tarzini ham yangicha yo'lga sol".

¹Sa'diy Sheroziy. Muntahabi g'azaliyot. Dushanbe. 1977., 282-bet.

Ko‘rinayotirki, tahlilga tortilgan ikki g‘azal inson ruhiy holatining ikki qarama-qarshi qutblarni ifodalashda davom qiladi. Shayx Sa‘diy g‘azali matlaida ko‘ringan bulutu yomg‘ir misradan misraga ko‘chib, she‘r satrlarini mantiq rishtalari bilan tutashtirishga xizmat qiladi.

“Sarbonga ayting, ko‘zim yoshlari yomg‘irdek quyilib kelmoqda. U tuya ustiga odam o‘tiradigan kajavani o‘rnatish tashvishiga tushmasin. Chunki, tepadan quyilib turgan yomg‘ir paytida bu yumushlarni bajarish ko‘ngilga sig‘maganidek, ko‘zda shashqator ashk bilan safarga chiqmoq ham kishining ko‘ngliga xush yoqmaydi”.

Ma‘lumki, o‘zining yigirma yillik umrini safar tashvishlari bilan o‘tkazgan Shayx Sa‘diy uchun yo‘lning ayanchli uqubatlari o‘chmas xotira edi. Ular jahongashta shoirning qalbi tubiga tushgan cho‘kmalar sifatida asta-sekin adibning badiiy yaratmalariga ko‘cha borgan.

Navoiy Foni g‘azalida hayot shavqi, undan sarxushlik kayfiyati tasviri davom etadi. Xassos shoir she‘riyatning an‘anaviy aslahalarini ishga soladi.

Beshinchi misradagi “Maseh dam” o‘shalardan hisoblanadi. Maseh – Iso payg‘ambarning laqablaridan biri. Iso alayhissalom nafasining o‘tkirligi bilan ajralib turgan. O‘sha karomatli nafas, hatto, o‘liklarni tiriltirish qudratiga ham ega ekan. Sharq she‘riyatida shu fazilat yor-ma’shuqaga ko‘chirilgan. Foni-Navoiy tahlil qilayotganimiz misrasida shakllangan adabiy odatga rioya qilgan.

“Yor ko‘yida esgan shamol bag‘rida tuhfa bilan keldi. Ma’shuqaning bo‘yi va Maseho misol nafasini keltirdi. Hijron olovida yonmoqda bo‘lgan oshiq uchun yangi izzat qovshiladi. Uning yuragi qonga aylanadi”. Bayt uzra tanosubni kuchaytirgan shoir oshiqning qonli yuragi va lolalardan rangin bo‘lgan tog‘ning manzarasi ortasida yaqinlik tuyadi. O‘xshatish va

o‘xshatilmish g‘azal matlaidayoq mantiqiy asoslangan. Unda navbahor haqida ishora mavjud.

Baytning ikkinchi misrasida savol-javob san‘atiga murojaat qilingan. Shu o‘rinda san‘at ichra san‘at ham mavjud.

“Alamlar girdobida qolgan oshiq shabbodani yo‘qotib qo‘yib, uni izlashga tushadi. Aslida bularning barchasi uchun sarxushlik aybdor. Ma’shuqa bo‘yini olib kelgan nasim oshiq dimog‘ida o‘rnashib turibdi”.

Bilib-bilmaslikka olish – tajohul-ul orif – badiiy san‘ati tavsiya etilayotgan manzarani kuchaytirishga xizmat qiladi. Shoir oshiqni vasvasalar azobidan qutildiradi. Sarxushligi tarqala boshlagan oshiq nasimning ushshoq to‘dasi tomon yo‘l olganligidan taskin topadi... Ma’lum bo‘layaptiki, har ikki g‘azalning keyingi misralarida matla’ ruhi rivojlantiriladi. Shayx Sa’diyning g‘azalidagi to‘rtinchi bayt bu jihatdan qiziqish uyg‘otadi.

“Hijron jafolari diydalarimga hasrat yoshlarini hamdam etdilar. Qiyomat kuniga qadar bu holat davom qiladiganday tuyuladi”. Sa’diy butun mahoratini ishga solib, oshiqning nolayu fig‘oni tasvirini tobora kuchaytiradi. Sevishganlar nasibasining yangi-yangi lahzalarini ochishda shiddat ko‘rsatadi:

“Ey kechalarni bedor o‘tkazuvchilarning tongi (ya’ni ma’shiqa) jonim halqumimga keldi, sababi senga ayon: ro‘za tutadiganlar shomligi (iftorligi) misol kechikdik”.

Shayx Sa’diyning ishora va topilmalari g‘oyat nogahoniy, ular she’rxonni fikrlashga, hayotiy udumlar ustida bosh qotirishga majbur qiladi. Yuqorida mazmuni bayon etilgan baytda ham shunday ishora bor.

Ma’shuqaning va’dalashgan joyga kechikib kelishi ro‘za tutuvchilar iftorligining o‘z muddatida berilmasligiga o‘xshatiladi. Bunda ma’no bor. Chunki kun bo‘yi ochlik va chanqoq azoblariga (ro‘za yoz oylariga to‘g‘ri

kelsa) chidagan odam uchun kechiktirilgan har bir daqiqa o'ta azob bilan o'tadi. Ayni holatni oshiq qiyofasida, ruhiy holatida ham his etmoq mumkin.

Shoir to'liqlik tasvirini davom ettiradi. "Ishqning mojaralaridan qanchalik so'zlamayin, illoh, ishongin, dil qavatlarida yotgan azoblarning mingdan birini ham tilga chiqara olmayman. Sa'diy, tirikchilikka bo'lgan mehr dil tubiga cho'kkanday, endi uni illoh, zamona va uning odamlariga oshkor qilishning iloji yo'q. Yana qancha sharhu hikoyat qilaman, aytganlarim ham kifoya. Chunki g'amzadalarga shularning o'zi ham yetib ortadi".

Ko'rinadiki, Shayx Sa'diy g'azalning keyingi misralarida mushohada maylini kengaytirib yuborgan. Satrlarda ifodasini topgan gapning bir uchi shoir yashagan zamonning uqubatlariga daxldor bo'lib qoladi.

Ana shunday ishoralar Navoiy-Foniy tatabbusida ham ko'zga tashlanadi.

"May va mayparastlikdan devonalik va mastlik qilasan: Aytchi, xushyorlar oldida sharmanda bo'lishdan qo'rqmaysanmi? Zohidlar zamona mehnatlariga go'yo nishon bo'ladilar. Mayxo'rlar esa mag'rurlarcha may ichishdan xushnuddirlar. Kunlarimdan xurram va ro'zg'or tashvishlaridan beg'am edim. Ey! hamdam do'stim, qani o'sha baxtiyor kunlaru tirikchilik". Baytda zohidlik va mayxo'rlik bir-biriga qarama-qarshi tushunchalarday tuyuladi. Zuhdu zohidlik yaxshi fazilat. Insonning zohiran va botinan pok yurishi, yaramas ishlardan uzoq turish, ikki olam podshohi – Alloh yodi bilan yashashiga nima yetsin! Bularning barchasi yaxshi. Shu bilan birga zohidlarni badnom qilgan illatlar ham turadi. Ularning eng kattasi tamagirlik va riyo. Zohid barcha harakatlarini oshkora, el nazarida amalga oshiradi. Holbuki, sidqan e'tiqod namoyishkorlikni yoqtirmaydi. Yana ahli zuhd jannat tamasida toat-ibodat bilan shug'ullanadi. Axir, Alloh

hamma narsani ko‘ruvchi va biluvchidir. Uning nazarida chetda qoladigan hech narsa bo‘lmaydi. Ana shu nuqtada islomiy ta‘limot va zohidlik o‘rtasida ziddiyat mavjud.

May va mayxona ahli ichki olami mustahkam, urinishlari umidvorlikdan holi. Narigi dunyoda jannat yoki do‘zax nasib bo‘ladi-mi? Masalaning yechimi Parvardigorning hukmidadir!

Navoiy-Foniy charxi kajraftor jafolaridan fig‘on chekadi. Chunki, rafiq dushmanga aylandi, o‘zlarini do‘st tutuvchilar ham ayniydilar. Ravshan bo‘layotirki, Foniy-Navoiy g‘azalining oxirgi satrlarida ham mushohada jilovi erkin qo‘yiladi. Muhokama doirasi kengayib boradi. Mazmun rishtalari oshiq va ma‘shuqa mojaro doirasidan chiqib, ijtimoiy mohiyat kasb etadi. Ulug‘ o‘zbek shoiri zamona jafolari, illatlaridan zorlanadi.

Navoiy o‘z g‘azaliga “Tatabbu Shayx” deb sarlavha qo‘ygan bo‘lsa-da, u ijodiy va erkin yo‘l tutadi. Shayx Sa‘diy g‘azalining ruhidan bahra olib, o‘zining ijodiy imkoniyatlarini namoyon qilgan g‘oyat dilkash va ijodiy g‘azal yaratgan.

Ustoz ijodkor bahona o‘z dardlarini to‘kib solgan. Noqobil kimsalarning yetkazgan ozoridan zada va aftoda qalbiga taskin, tasalli berishga muyassar bo‘lgan.

Shayx Sa‘diy Sherozda ziyoli oilada tavallud topdi. Dastlabki savodini oila muhitida otasidan oldi. Sherozning peshqadam muallimlari qo‘lida ta‘lim va tahsil oldi. “Sa‘diy” taxallusi bilan ilk she‘rlar ijod etganda u hali bola edi. O‘sha badiiy yaratmalar Sheroz zaminida vujudga kelgan. Ular umidli yosh qalamkashning duraxshon kelajagidan ogohlik berardi. “Sa‘diy” ham “Sheroziy” shoirning adabiy taxallusidir. “Sa‘diy”ning o‘zagi “Sa‘d”dir. Arab tiliga tegishli bu so‘zning “baxt”, “tole”, “yaxshilik” singari ma‘no jilolari bor. Sa‘d falakiyotga ham daxldor.

U yulduz harakatining yigirma ikkinchi nuqta – manzilini anglatadi. “Sa’dayn” ko‘rinishida esa Mushtariy va Zuhra yulduzlari iborasini bildiradi. Arab tili va uning so‘z birikmalarida puxta xabardor shoir taxallus qilib olgan so‘zning barcha ma’no jilolarini nazarda tutgan bo‘lishi tabiiy. Sira ikkilanmay aytish mumkinki, u yanglishmadi. Mushtariy va Zuhra samoning bezagi bo‘lsa, Shayx Sa’diy fors-tojik adabiyoti osmonining Sa’daynidir.¹

Sheroz – Sa’diyning vatani. Shoirning bu ko‘hna madaniy markazga mehri bag‘oyat baland. O‘sha sadoqat tufayli u faxr ila o‘zini “Sheroziy” deb atadi. Shayx Sa’diyning mukammal nomi uning suhbatlarida bo‘lgan zamondoshi iroqlik tarixshunos Kamoliddin ibn al Fuvutiyning yozishicha, Muslihiddin Abu Muhammad Abdulloh ibn Mushrifiddin ibn Muslihiddindir. O‘n ikki, o‘n uch yoshlarida otasidan ajralgan Sa’diy nochor ahvoliga qaramay o‘qish va izlanishda davom etdi. O‘n uchinchi asrning yigirmanchi yillari shoir hayoti uchun yangi davr hisoblanadi. Ayni yillarda mo‘g‘ul istilolari kuchaygan davr edi. Shayx Sa’diy Sherozdan Bag‘dodga keladi, “Nizomiya” madrasasida tahsil oladi. Madrasa xatmidan so‘ng u Makkaga – Hajga borish niyati bilan safarga otlanadi. Sa’diy hayotining ana lavhalarini Navoiy:

“...ulumdan tamom bahrasi bor ermish va odobdin komil nasibasi, ko‘p safar qilibtur va aqolimni kezibtur va necha qatla hajga ayoq boribtur”,² - deya umumlashtiradi. Shayx Sa’diyning bu safari yigirma yilga cho‘ziladi. U Turkiya, Hindiston, Janubiy Arabiston, Shimoliy va Janubiy Afrika, Movarounnahru Xuroson, Qohirayu Xalab, Kichik Osiyoning qator davlatlarida bo‘ladi. Uzoq muddatli musofirlik Shayx

¹R. Vohidov. Alisher Navoiyning ijod maktabi. Buxoro., 1994., 39-bet.

²Alisher Navoiy 15-jild.171-172-betlar.

Sa'diy uchun hayot va ijod maktabi vazifasini o'tadi. Uning asarlarida o'chmas iz qoldirdi.

Taniqli olim Shoislom Shomammedov tomonidan o'zbekchalashtirilgan quyidagi g'azal ham o'sha sertashvish yillarning mahsuli bo'lsa, ajab emas.

Ey sorbon, ohista yur, oromijonim boradur,
Tandin dilu jonim olib, ul dilistonim boradur.
Qolurmenmi olis bo'lub, bechoralar ma'yus bo'lub,
Qalbim firoq tig'i tilib, to ustixonim boradur.
Derdim qilib nayrang – fusun, sirrim etay pinhon bu kun,
Pinhon bo'lolmas chunki xun, dildan nihonim boradur.
Sarkash nigorimdin judo, ayshu qarorim bebaqo,
Manqalda otashdek qaro dud birla qonim boradur.
Cheksamda zulm bedodini, ham va'dalar barbodini,
Ko'ksimda tutgum yodini, toki zabonim boradur.
To'xtat bir oz, ey sarbon, karvonni qilma tez chunon,
Sarvi ravon ishqida jon, ruhi ravonim boradur.
Qayt, ko'zlarimga qo'y oyoq, ey dildirib, ketma yiroq,
Ey nozanin ko'kka bu choq ohu fig'onim boradur.
To subhki, uyqu bilmadim, nosihni ko'zga ilmadim,
Ammo ataylab qilmadim, qo'lda inonim boradur.
Sabr ayla der menga jaras, yor vaslini qilma havas,
Bu menga loyiq ish emas, chun xonumonim boradur.
Unday chiqar jonu bu tan, sabil qolurdi, ko'p suxan,
Tinglagan edim endi man ko'rdimki jonim boradur.
Qilma fig'on, ey Sa'diyo, hech arzimas ul bevafo,

Toqatni qo‘ymas bu jaf o aqlu imonim boradur.¹

Mazkur asar Sa‘diyning shoh asarlaridan hisoblanadi. She‘r an‘anaviy ishq-muhabbat mavzusiga bag‘ishlangan. Unda ikki yetakchi siymo – sarbon va oshiq harakat qiladi. Xushovoz xonanda Jo‘rabek Murodov va hofiz Sherali Jo‘rayevlar ijrosida dillarga yo‘l topgan gvazalda oshiqning murakkab ruhiy iztiroblari, ma‘shuqa ko‘rkam qiyofasining barcha manzaralari sarbonga murojaat vositasida badiiy talqinini topadi.

Sarbon – bir manzildan ikkinchi bir makonga yo‘l olgan karvonning rahbari;

Sarbon – hayot atalmish tubsiz bir olamning harakatlantiruvchi kuchi. G‘azalda ana shu ikki qiyofadagi siymoni ham his qilish mumkin. G‘azalning mohiyatini jo‘n idrok etmoq – kitobxonni birinchi sarbon bilan yuzlashtiradi. Satrlarning murakkab, majoziy mazmunini anglamoq esa she‘rxonni ikkinchi sarbon bilan tanishtiradi. G‘azal tashbeh ichra tashbehlar, rangin kamalak misol tovlanib, ko‘zni qamashtiruvchi tagdor majozlarga liq to‘la. Shayx Sa‘diy sohir qalamidan mazmun va jilo olgan misralar shu qadar ohangdorki, ayni jarang tufayli g‘azalning musiqasi uning ichki mantiqidan taraladi.

Ko‘p yurtlarda bo‘lish, xalqlar va donishmandlar bilan muloqotlar Shayx Sa‘diy dunyoqarashining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etgan bo‘lsa, tassurotlar, yig‘ilgan pandu hikmatlar, rivoyat, hikoyat, maqollar shoir asarlariga mazmun, rang va ruh bo‘lib yo‘g‘rildi. Ularni mahoratning yuksak cho‘qqilariga ko‘tardi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, shoirning zamondoshlari va izdoshlari uning devonlarini “She‘riyatning tuzdoni” deb ataganlar.

She‘riyatning tuzdoni bo‘lmish Sa‘diy she‘riyatida yuqoridagi g‘azallar kabi voqeaband g‘azallar ko‘p. Ularda shoir matladagi boshlangan

¹Sa‘diy Sheroziy. She‘riyatidan, Toshkent, 1976., 131-bet.

fikrni izchil ravishda rivojlantirib boradi. Mantiqiy fikrlar uzviy ravishda baytma-bayt rivojlantirilib, kompozitsion izchillik bilan lirik hissiyotlar ifodalanadi. Bunday gʻazallar mumtoz adabiyotda musalsal gʻazallar deyiladi. Navoiy-Foniy nafaqat fors-tojik tilidagi gʻazallari, balki turkiy tilda yaratgan asarlarida ham ustoz Saʼdiy anʼanalarini davom ettiradi.

Navoiy tadrij usulining mohir ustasidir. U shu usul vositasi bilan koʻpgina voqeaband-musalsal gʻazallar yaratadi. Lirik hissiyot ifodasi bilan obyekt tasvirini bir-biriga uzviy bogʻlaydi, bir qator timsollar yaratib, ularni markaziy timsol atrofiga toʻplaydi. “Yordin ayru koʻngul...”, “Xilvatin aylabmudur ul shoʻxi siymin tan qaro”, “Zavraq ichra ul quyosh sayr aylamas Jayhun aro”, “Sochdi terdin gul uza ul sarvi gul ruxsor suv”, “Vaʼda aylab vasl jismi notavonim oʻrtama” kabi bir qancha gʻazallari shular jumlasidandir.

Misol:

Yordin ayru koʻngul mulkedurur sultoni yoʻq,
Mulkkim sultoni yoʻq jismedururkim joni yoʻq.
Jismdin jonsiz ne hosil, ey musulmonlarkim ul
Bir qaro tufrogʻdekdurkim, gulu rayhoni yoʻq.
Bir qaro tufrogʻkim, yoʻqtur gulu rayhon anga
Ul qorongʻu kechadekdurkim, mohi toboni yoʻq.
Ul qorongʻu kechakim yoʻqtur mohi tobon anga,
Zulmatedurkim, aning sarchashmai hayvoni yoʻq.
Zulmatekim chashmai hayvoni oni boʻlmagʻay,
Doʻzaxedurkim, yonida ravzai rizvoni yoʻq.
Doʻzaxiykim ravzai rizvondin oʻlgʻay noumid,
Bu xumoriydurkim, anda mastligʻ imkoni yoʻq.
Ey Navoiy, bor anga mundoq uqubatlarki bor,
Hajrdin dardi va lekin vasldin darmoni yoʻq.

Bu gʻazal hijron mavzusida yozilgan boʻlib, shoir barcha timsollarni, oʻxshatish va oʻxshatilmishlarni markaziy timsol – “yordin ayru koʻngul” timsoli takomiliga qaratadi. Shu yoʻl bilan shoir hijron dahshatini, hijron alam-iztirobiga giriftor boʻlgan oshiqning ahvoli va kayfiyatini toʻlaroq va taʼsirliroq qilib ifodalashga muvaffaq boʻlgan. Bu gʻazalning kompozitsion tuzilishi va timsollar silsilasini quyidagicha koʻrsatish mumkin:

I bayt: Yorsiz koʻngil – sultonsiz mulk.

II bayt: Sultonsiz mulk – jonsiz jism. Jonsiz jism – rayhonsiz qora tuproq.

III bayt: Rayhonsiz qora tuproq – oysiz tun.

IV bayt: Oysiz tun – obi hayoti boʻlmagan zulmat.

V bayt: Obi hayoti boʻlmagan zulmat – jannat bogʻidan yiroq boʻlgan doʻzax.

VI bayt: Jannat bogʻidan yiroq boʻlgan doʻzaxiy – maysiz xumoriy.

VII bayt: Lirik xotima: hajrning shunday azobi boʻlsa ham yordan voz kechma.

Navoiy hayot ziddiyatlarini, bir-biriga qarama-qarshi boʻlgan manzara va hodisalarni, his-tuygʻularni tazod-qarshilantirish vositasida yoritadi:

YORSIZ KOʻNGIL:

1. Sultonsiz mulk.
2. Jonsiz jism.
3. Rayhonsiz qora tuproq.
4. Oysiz tun.
5. Obi hayoti boʻlmagan zulmat.
6. Jannat bogʻidan yiroq boʻlgan doʻzax.
7. Maysiz xumoriy.
8. Lirik xotima: hijron va vasl.

Shu kabi gʻazallar ustoz soʻz sanʼatkori, xususan, Shayx Saʼdiy ijodiy mahorati anʼanalari ruhida yaratilgandir. Shuning bilan birga Shayx Saʼdiyning mashhur “Guliston” asari, undagi hikoyatlar, tasvir etilgan voqea-hodisalar, loʻnda xulosalar hayotiy zaminga ega ekani bilan diqqatga sazovor. “Guliston”ning Navoiy tarjimai holi va ijodiyotiga bevosita bogʻlanadigan jihatlari bor. Avvalo, umuminsoniy axloqiy masalalarga baho berish va badiiy tahlil qilish bobida bu ikki ijodkorning qarashlari rost keladi. Inson va insonparvarlikka munosabat xususida esa Shayx Saʼdiy va Alisher Navoiylar chinakam fikrdoshdirlar.

“Guliston”dagi ayrim hikoyatlar ulugʻ oʻzbek shoirining yirik masnaviylari tarkibida uchraydi. Masalan, hikoyatlardan birida bayon etilishicha, faqirlik va tanholikni ixtiyor etgan darvesh yonidan oʻtib ketayotgan shohga eʼtibor qilmaydi va iltifot koʻrsatmaydi. Darveshning nopisandona harakati shohga kuchli taʼsir qiladi. Natijada ikki oʻrtada malomat va mazammatlar boshlanadi. Nooʻrin tanbehlardan ranjigan darvesh aytadi. “Podshohga degilkim, neʼmat va iltifotidan umidvor odamdan izzat va xizmat kutsin. Yana shuni ham aytib qoʻygilki, fuqarolar podshohlarga itoat etmoq uchun emas, balki podshohlar fuqaroga xizmat etish uchun yashaydilar”.

Hikoyatning darvesh va shoh muomalalarida umumbashariy ulkan muammo qalamga olingan. Podshoh Saʼdiy qahramoni oʻta aniq va tagdor qilib aytganida, oʻzini fuqarolar ustidan hukmron emas, balki ularning xizmatkori deb bilsa, yurt gullaydi, raiyat farovon yashaydi. Xuddi shunday qarashni Navoiy oʻzining “Hayrat ul-abror” dostonining “Salotin bobida” qismida ilgari suradi. Navoiyning fikricha ham Xudo shohlikni nasib qilgan kishi ham aslida oddiy bir bandadir. Davlat boshligʻi odil, oqil, orif va el-yurtga gʻamxoʻr boʻlishi lozim:

Boʻldi raiyat chalavu sen shubon,

Ul shajari musmiru sen bog‘bon.
Qo‘yni shubon asramasa oyu yil,
Och bo‘ri tu‘masidur bori bil.
Bo‘rini dog‘i galadin dur qil,
Suv beribon bog‘ni ma‘mur qil.

Shayx Sa‘diy va Alisher Navoiylarning ma‘naviy merosidan umuminsoniy mavzularni badiiy tahlil qilish bobida uyg‘unlik alomatlari ko‘plab ko‘zga tashlanadi.

“Guliston”da hayot va oxirat masalasi markaziy o‘rinlardan birini egallaydi. Adib hikoyatlaridan biri shunday xotima topadi:

Taqdirning zo‘r hukmi ijro bo‘larkan,
Shohu gadoligin farqi yo‘q zarra.
Birorta qabrni ochib qarasam,
Boy, faqir so‘ngagin bilmaysan sira.¹

Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonida shunga hamohang misralarga duch kelamiz. Mag‘rib mamlakatlaridan birini zabt etgan Iskandar o‘z odatiga ko‘ra shu yurt shohi avlodlaridan birini taxt sohibi qilmoqchi bo‘ladi. Ammo uning mulozimlari munosib nomzod topolmaydilar. Nihoyat, izlanishlar oqibatida gadolikni ixtiyor etgan bir shahzodani Iskandar huzuriga olib keladilar. Juldur libosdagi shahzoda ikki qo‘lida ikki kalla suyagi bilan Iskandarga ro‘para bo‘ladi. Navoiy shunday satrlar bitadi:

Iskandar anga ehtirom ayladi,
O‘z olinda oliy maqom ayladi.
Dedi: “Bu so‘ngaklardin afsona ayt,
Ne so‘rsam javobin aning yona ayt”.
Dedi: “Go‘rlardin qilurdi guzar,

¹Sa‘diy. Guliston. Toshkent., 1968., 17-bet.

Necha bu so‘ngaklarga soldim nazar.
Zamirimga lekin nihon qoldi bu,
Ki shahning qayudir, gadoning qayu?
Chu o‘lganda birdur bu ikki mato’
Tiriklikda nechunqilurlar nizo’?”¹

Ko‘rinadiki, “Guliston” hikoyati xotimasi bilan Navoiy misralari o‘rtasida g‘oyaviy yaqinlik bor. Shayx Sa‘diyda hikoyat ancha ixcham. Alisher Navoiy uni o‘z g‘oyaviy niyat va maqsadlari talabidan kelib chiqib, sayqal bergan, ya’ni lavhalar bilan boyitishga muyassar bo‘lgan. Biroq mag‘iz – yakuniy xulosa masalasiga kelganda, bu asarlar bir-biriga yaqinlashib qoladi.

Jahonning barcha adabiyotlarida bo‘lgani kabi islom e’tiqod darajasiga ko‘tarilgan mamlakatlar xalqlari badiiy so‘z san’atida ham adabiy aloqa va o‘zaro ta’sir hodisasi amal qilib keladi.

Arab adabiyotida shakllangan eng sara an’analarning fors-tojik yoxud turkiy xalqlar badiiy kalomiga ta’sir ko‘rsatishi bor haqiqatdir. Shu bilan bir qatorda islomiy shariat, asarlar, xususan, “Qur’oni Karim” va hadisi sharif tabiatidan kelib chiqadigan g‘oya va mavzular mavjudki, ular qariyb o‘n to‘rt asrlik davr mobaynida turkiy xalqlar adabiyotlari uchun bosh sarchashma vazifasini o‘tab keladi. Shayx Sa‘diy va Alisher Navoiy dahosida kuzatilgan talay insoniy fazilartlarning ham tayanch manbai islomiy qarashlardir.

Ilk savodini “Haftiyak” va “Qur’on” mutolaasidan boshlagan Alisher Navoiy o‘z navbatida Shayx Sa‘diy adabiy tajribasidan ham ijodiy oziqlangan. Qo‘sh chashmaning ziyosidan ijodiy bahra olish esa Alisher Navoiy badiiy kalomini ibratli cho‘qqilarga ko‘tarib qo‘ydi. Yana o‘tmish maktabu madrasalarida “Guliston” va “Bo‘ston” asrlarining maxsus

¹Alisher Navoiy. 10-jild, 20-bet.

o'rgatilganligi bu ikki zabardast qalam sohiblari o'rtasida ustozu shogirdlik munosabatlarining shakllanishi uchun qulay zamin hozirlagan.

“Guliston”da Komil Inson tarbiyasi yo'lida xizmat qilgan va qilish mumkin bo'lgan hikmatlar nihoyatda ko'p. “Guliston” o'z davridayoq shuhrat topdi. Mag'ribu Mashriqda dovrug'i taraldi. Asar boshqa tillar qatori o'zbek tiliga ham o'girildi. Yuqorida aytilganidek, o'n uchinchi asrda Sayfi Saroyi, o'n to'qqizinchi asrda Erniyozbek o'g'li Ogahiy va Murodxo'ja ibn Solihxojilar tomonidan tarjima qilindi va o'zbek kitobxonlariga taqdim etildi. Yigirmanchi asrning 60-yillariga kelib, G'afur G'ulom, Shoislom Shomammedov va Rustam Komilovlar uning o'zbek tilidagi yangi, zamonaviy tarjimasini amalga oshirib, alohida kitob holida nashr ettirdilar.

Sa'diy shunday satrlar bitgan edi:

Qo'limda agar bo'lmasa qand ham,
So'zim bor, shakardan emas ta'mi kam.
Bu ul qand emaskim, so'rib el yegay,
Kishi qog'oz ichra o'rab bermagay.
Bino qildim iqbol qasrini men,
O'n eshik ochib tarbiyat bobidan...

Badiiy so'z mulking buyuk donishmandi sira yanglishmadi. U ma'rifat chamanidan bol yig'ib qoldirdi. Muhtasham iqbol qasrini hadya etdi. Shayx Sa'diy bolining xushbo'y hidi hamon dimog'larda, ta'mi lablarda, imon, insof, adlu amniyat qasri esa o'z muhiblarini kutmoqda.

Shayx Sa'diy qoldirgan meros faqatgina miqdori bilan emas, balki mavzu va gvoyalar olami, ta'lim-tarbiya maktabi, ibratli saboqlari bilan cheksiz ummonga tengdir. O'sha bahri kabirga qanchalik chuqur sho'ng'ilsa, shunchalik durru javohirot qo'lga kiradi. Uning she'riyatida inson hayotidan olingan lavhalar mohirona, lo'nda, donishmandona, rangin

ifodasini topgan. Shuning uchun Shayx Sa'diy kalomi ellar va dillarni zabt etib kelmoqda. Shu asarlar bunyodkori ming-minglab qalam sohiblariga ijod sirlaridan saboq aytadi, ustozlik qiladi. O'zbek adabiyotida buyuk adib g'azallariga tatabbu qilish, javobiya aytish, ilhombaxsh an'anasini davom ettirishni ulug' Alisher Navoiy boshlab bergan edi. Bu qutlug' yo'l hamon bardavomdir...

X U L O S A

Yurt obodligi, mamlakatlar o'rtasidagi tinchlik-totuvlik kishilarning azaliy orzusi bo'lgan. Xalqlar o'rtasidagi do'stlikning rivojida ular o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy, madaniy aloqalar muhim omil sanalgan. Xalqlar o'rtasidagi madaniy aloqalar rivojida badiiy adabiyotning o'rni beqiyosdir.

Fors-tojik adabiyoti klassiklari Rudakiy, Firdavsiy, Hofiz, Sa'diy kabi ijodkorlar dunyo miqyosida tanilib, boshqa xalqlar adabiyotiga ham katta ta'sir o'tkazgan. Nemis shoiri Gyote Sa'diyni "juda mahsuldor va fayzli, hayot tajribasi bilan boyigan juda yaxshi shoir", - deb hisoblagan. Fransuz yozuvchisi Volter "Guliston"dan xabardor bo'lgan va ba'zi she'rlaridan foydalangan. Sa'diy she'rlari nemis, fransuz, rus tillariga tarjima qilingan.

Sa'diyning "Guliston" asari Sharq mamlakatlarida maktablarda asosiy qo'llanma bo'lgan. Sa'diyning "Guliston" asarining Sayfi Saroyi, Ogahiy, Murodxo'ja domla Solihxo'ja o'g'li tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilinishi bu asarning O'zbekistonda ma'lum va mashhur bo'lishiga sabab bo'lgan.

Sa'diyning Sharq g'azalchiligi borasidagi katta xizmatlaridan biri musalsal g'azallar yaratgani bo'ldi. Bu an'ana Navoiy va boshqa shoirlar ijodiga katta ta'sir o'tkazdi. Navoiy bu an'anani yanada boyitib, rivojlantirib katta muvaffaqiyatlarga erishdi.

Sa'diy ijodining O'zbekistonda keng shuhrat topishida G'.G'ulom, Sh.Shomammedov, J.Jabborovlarning xizmatlari kattadir. Sh.Shomammedov Sa'diy asarlarini tarjima qilish, nashr qilishdan tashqari, "Guliston" asari an'alarini davom ettirib, zamonaviy hikoyalar asosida "Gulbog'" nomli asar yaratdi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Karimov I. A. Ma’naviy yuksalish yo‘lida.–Toshkent.: 1998.
2. Karimov I. A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. -T-., 2008.
3. Abdug‘ofurov I. Navoiy ijodida satira. T., 1972.
4. Ayniy S. Asarlar. 8-jild, T., 1967.
5. Vohidov R. Navoiy barhayot., T., 1991.
6. Vohidov R. Alisher Navoiyning ijod maktabi., Buxoro., 1994.
7. Mallayev N.M. O‘zbek adabiyoti tarixi. T., 1965.
8. Mirzayev L. Foni va Hofiz. Navoiy va adabiy ta’sir masalalari. T., 1968.
9. Sa’diy Sheroziyshe’riyatidan. -Toshkent., 1976.
10. Sa’diy. Guliston.,- Toshkent., 1968.
11. Sa’diy. Bo’ston. -Toshkent., 1970.
12. Shomammedov Sh. Bir dasta gul, “Guliston” kitobiga so‘zboshi. -Toshkent., 1968.
13. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. T., “Sharq” NMAK, 2004.
14. O‘zbek adabiyoti tarixi. I jild., -Toshkent., 1972.
15. O‘zbek adabiyoti tarixi. II jild., -Toshkent., 1978.
16. “Yoshlik” jurnali.
17. “Tafakkur” jurnali.
18. “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” jurnali.
19. “Sharq yulduzi” jurnali.